

" ILMİY TADQIQOTLAR,
INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA
AMALIY STRATEGİYALAR TADQIQI "
mavzusidagi Respublika ko`p tarmoqli, ilmiy
konferensiya



No 7
MART
2023 yil



<https://ojs.rmasav.com>

Tahririyat a'zolari

Berdialiev A. f.f.d., prof.
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.
Мадымаров Т.Т. yur.f.d., prof.
Мурзаева С.Р. fil.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent

Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent
Achilov N.K. fil.f.d., dotsent
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent,
TFA Akademik
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent
Otadjanova M.O. f.f.d.
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent
Hasanov A.M. fil.f.f.d.
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent

Mas'ul kotib: M.Yusupov

**THE JOURNAL OF
INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH**

ISSN: 2181-3558

**ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA
AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI**

№ 7-SONLI RESPUBLIKASI KO'P TARMOQLI, ILMIY KONFERENSIYA

23-MART 2023-YIL

**RESEARCH OF SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATION,
THEORETICAL AND PRACTICAL STRATEGIES**

7th REPUBLIC OF MULTIFIELD SCIENTIFIC CONFERENCE

MARCH 23, 2023



ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТИ СУШКИ ХЛОПКА-СЫРЦА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ЧИСЛА ОБОРОТОВ БАРАБАННОЙ СУШИЛКИ

А.М.Шодмонкулов

Джиззакский политехнический институт

Разработана, изготовлена и внедрена цепной привод для барабанной сушилки 2СБ-10 [1, 2, 3].

Известно, что числа оборотов существующих барабанных сушилок равна 10 об/мин. Поэтому этот показатель мы выбрали базовым при изучении показателей усовершенствованного сушильного барабана. Исследованы следующие обороты барабанной сушилки: 8, 10 и 12 об/мин.

При проведении опытов количества и средняя скорость движения агента относительно хлопка-сырца, а также плотность теплоносителя для всех вариантов не менялся. Опыты проведены на сушильном барабане 2СБ-10, внутри которого установлены тормозящие спицы, но на разработанном цепной приводе.

Продолжительность сушки хлопка-сырца в барабанной сушилке (времени пребывания хлопка-сырца в барабане) определяли методом окрашенной хлопком спускаемый с приемной патрубки барабана и временем нахождения этого хлопком внутри барабана. Перед началом опытов установили производительность подачи хлопком в сушильный барабан в выбранных значениях, равных 8, 9 и 10 т/час. Повторность каждого варианта опытов выбрали равным 3. Продолжительность опытов при установленных режимах работы составлял 30 мин. Во время проведения опытов использовали хлопок сырца селекционного сорта С-6524 первого промышленного сорта с влажностью 13,8 % и засоренностью 4,6 %. Результаты опытов приведены в таблице 1.

Таблица 1.

Определение продолжительности сушки хлопком-сырца в зависимости от режима работы и производительности сушильного барабана

Исследованные режимы работы барабанной сушилки, об/мин	Продолжительность сушки мин., в зависимости от производительности сушильного барабана, т/час		
	8	9	10
8	6,8	6,6	7,1
	6,9	6,9	7,0
	7,3	7,4	6,7
средние	7,0	6,96	6,93
10	5,8	5,7	5,6
	6,0	6,3	5,9
	5,9	6,0	6,2

средние	5,9	6,0	5,9
12	5,1	5,0	5,3
	5,0	5,1	5,1
	4,7	4,8	4,9
средние	4,93	4,96	5,1

Как видно из таблицы 1 продолжительность сушки хлопка-сырца в барабанной сушилке не зависит от производительности подачи хлопка-сырца в сушильный барабан. При выбранных значениях производительности сушильного барабана по высушиваемому хлопку 8, 9 и 10 т/час, например, при режиме работы барабана со скоростью 8 об/мин находится в пределах 7 мин.

Однако, как видно из приведенных данных таблицы 3.3 не зависимо от производительности сушильного барабана по высушиваемому хлопку продолжительность сушки изменяется в зависимости от режима работы, то есть от скорости вращения сушильного барабана. Если при выбранной скорости вращения сушильного барабана 8 об/мин продолжительность сушки хлопка-сырца находится в пределах 7 мин. то с увеличением скорости вращения сушильного барабана 12 об/мин продолжительность сушки хлопка-сырца уменьшается до 5 мин. Таким образом, можно сказать, что продолжительность сушки хлопка-сырца в барабанных сушилках не зависит от его производительности по высушиваемому хлопку, а зависит только от режима работы, то есть от скорости вращения барабанной сушилки.

Использованная литература

1. Джамалов Р. И др. Разработка ресурсосберегающей технологии сушки и его внедрение в производства. НТО, АО «Пахтасаноат ilmiy markazi», Ташкент, 2020, 34 с.
2. R.K. Jamolov , A.M. Shodmonkulov. IMPROVEMENT OF THE DRIVE OF THE DRYER 2SB-10 IN ORDER TO REDUCE ITS ENERGY CONSUMPTION. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: 2771-8948 Website: www.ajird.journalspark.org Volume 03, April, 2022.
3. Першин В.Ф. Машины барабанного типа: основы теории, расчета и конструирования.-Воронеж:Изд. ВГУ ,1990. 243 с.

EMOTIVE CATEGORY ON LEXICAL LEVEL*Xoliqulova Mashhura Anvar qizi**Tashkent State university Uzbek**Language and Literature named Alisher Navoiy, Master*

Abstract. Many linguistic and paralinguistic techniques can be used to express and conceptualize feelings and affects (Reilly & Seibert 2003). In fact, some scholars assert that these are inherent features of language (e.g., Foolen 2012) and that all linguistic levels are capable of expressing emotions. This article aims to analyze emotive category at lexical level in English language.

Key words: Lexical decision, category, emotion, emotivity.

There is a number of researches that demonstrates how diverse clues at various language levels define emotional speech. At lexical level words' emotional quality can be negative, positive or neutral. Moreover, this level can include word frequency as it conveys some emotions by higher or lower prevalence of use.

Particularly, behavioral responses to both positive and negative words were quicker than those to neutral words for low frequency words, whereas behavioral responses to positive words alone were quicker than those to either negative or neutral words for high frequency words (which did not differ). Early word frequency effects have been shown repeatedly in electrophysiological and eye movement paradigms (see Hand et al. 2010), and are thought to be a reliable indicator of lexical access (e.g., Sereno and Rayner 2003). Therefore, the relationship between a word's emotional content and frequency points to the importance of emotion in the early stages of word identification.

Arousal (internal activity) and valence, the two characteristics of emotion words, are usual (value or worth). Emotional words have higher arousal ratings compared to neutral words, which are connected with extreme valence (e.g., Bradley and Lang 1999; see also the circumplex model of Russell 1980). Although emotion words are found on opposite ends of a valence continuum, it is unclear whether positive and negative words belong in the same group or to separate categories. For instance, some researchers contend that the relationship between valence and recognition is categorical, with discrete positive and negative types, whilst others claim that it is linear, extending over a single dimension (e.g., Kousta et al. 2009; Larsen et al. 2008). (e.g., Estes and Adelman 2008a, b).

Emotional terms, such as "happy," "sad," or "mad," as well as words that allude to affective processes like "to worry," "to grow furious," or "to sadden," can convey emotional content at the lexical level (Wallace & Carson 1973). Moreover, some authors list the following words as being emotionally charged or related: Tears, tantrums, and "to shout" are examples of words that "define behaviours

connected to particular emotions without expressing the actual emotions" (Pavlenko 2008: 148); other phrases that evoke emotions include insults, swear words, endearments, and interjections. Another intriguing contrast separates the linguistic components and procedures utilized for emotional expression from those employed to conceptualize emotions. According to Foolen (2012), a statement like "I find that food awful" serves as an example of how emotions are conceptualized, whereas the exclamation "yuk!" serves as an example of how emotions are expressed.

The concept of emotions would then mostly be done by nouns (such as "love," "anger," etc.), verbs (such as "to love," "to hate," etc.), adjectives (such as "happy," "sad," etc.), and adverbs (such as "fortunately," "sadly," etc.). According to some claims, even prepositions, which provide relational qualities, such as "love for something," help conceptualize emotions (see Dirven 1997, Osmond 1997, Radden 1998).

Interjections like "yuk" and "wow"; intensifiers like "horribly" and "terribly"; emotional morphology like Italian pejoratives like cane "dog" vs. cagnaccio "bad dog" (see Costa 2006); and of course the use of emotional, emotion-laden, and emotion-related words are all examples of ways to express emotions in language.

In fact, there are some instances where it may be challenging to discern between the conceptualization and expression of emotions, and this line is not always easy to draw. For instance, some lexical terms, like "awful," may influence both. Beyond the lexical level, some authors contend that certain syntactic structures, such as "a N of an N" exclamative sentences, such as "a bear of a man," help to express emotions (see Foolen 2004).

In conclusion, emotion words has its categorial nature which divides into three groups negative, positive and neutral. In addition to these categories frequency of words is also important to express emotions. Only infrequently used negative terms show a similar advantage, whereas positive words routinely generate faster reactions than neutral words. Again, positive terms produce quicker responses than neutral words do. Nonetheless, regardless of their frequency, responses to negative terms were the same as those to neutral words. The general pattern of impacts shows that positive words are always made easier to understand, frequency is more important for recognizing negative terms, and the "negative" category encompasses a diverse range of emotions.

References

1. Becker CA (1979) Semantic context and word frequency effects in visual word recognition. *J Exp Psychol Hum Percept Perform* 5(2):252–259

2. Kousta S-T, Vinson DP, Vigliocco G (2009) Emotion words, regardless of polarity, have a processing advantage over neutral words. *Cognition* 112(3):473–481
3. McGinnes E (1949) Emotionality and perceptual defense. *Psychol Rev* 56(5):244–251
4. Stevenson RA, Mikels JA, James TW (2007) Characterization of the Affective Norms for English Words by discrete emotional categories. *Behav Res Methods* 39(4):1020–1024
5. Unkelbach C, Fiedler K, Bayer M, Stegmueller M, Danner D (2008) Why positive information is processed faster: the density hypothesis. *J Pers Soc Psychol* 95(1):36–49

ИҚТИСОДИЙ ФАРОВОНЛИКНИНГ НООДАТИЙ БЕЛГИСИ

Собирхужаев Хадятилло Биллохон угли
ЎзМУ Иқтисодиёт факультети талабаси

Иқтисодчилар орасида жуда қизиқ қарашлар мавжуд. Яъни аҳоли орасида уй ҳайвонлари боқишнинг урфлашиши фаровонлик белгиси сифатида қаралади. Уй ҳайвонлари деганда гўшт, жун, тухум, сут олиш учун эмас, балки кўнгилочар мақсадларда ит, мушук, балиқ, қуш ва ҳоказоларни боқиш тушунилади. Масалан, ҳар соҳада бўлганидек ҳайвон парваришида ҳам америкаликлар мутлақ етакчи (Кейинги ўринларда Британия ва Франция). Ушбу мамлакатдаги айрим статистикаларга назар ташласак :

1. Умумий ҳисобда АҚШда йилига 120-130 млрд долл сарфлади. Таққослаш учун бу Билл Гейтснинг жами бойлигига ёки Нью-Йоркдан 160 000 дан ортиқ уй сотиб олишга тенг.

2. Ўртача ҳар 3 та хонадондан 2 тасида уй ҳайвони мавжуд бўлиб, уларнинг аксари Россия, Франция, Германиядан фарқли равишда мушуклар эмас, итлардир. Жами бўлиб 69 миллион хонадонда итларни ва 45 миллион уйда мушукларни топиш мумкин. Ҳар 20 та уйдан бирининг ўз рептиляси бор.

3. Даромад сарфлари битта итга йилига ўртача 1480 долл. га тўғри келади. Бу эса дунёнинг 100 га яқин мамлакатидagi инсонларнинг ўртача сарфидан юқоридир. Жумладан, кўшнилариимиз Қирғизистон ва Тожикистонда ЯИМнинг жон бошига қиймати 1435 долл. ва 1015 долл. Андижонда эса тахминан 1389 долл.

4. Яна қизиқарлиси, сарфланадиган маблағларнинг аксари тиббий мақсадларга қаратилган. Аҳолининг қарийб 45%и ўз соғлиғи учун сарфланадиган маблағ баробарича ўз уй ҳайвонларининг даволанишлари

учун сарфлайдилар. Ҳар йили 458 долл. маблағ итларни даволаш учун сарфланади. Америкаликлар 4 оёқли дўстларининг озукаси учун ўртача 287 долл., ўйинчоқлари учун 56 долл., чўмилтириш, тозалаш учун 47 долл. сарфлайди. Ҳайвон уйлари ҳам энг ривожланган соҳалардан бири. Йилига биргина ҳайвоннинг уйига 230 долл. сарфланади.

5. Америкада ноёб касблардан яна бири бу - дог валкинг, яъни итларни сайр қилдириш хизмати (ўртача 30 дақиқа). Бу соҳада йилига 1 млрд долл. пул айланади. Бу соҳада йилига 26 мингдан 62 минг долларгача топиш мумкин ва бу деярли АҚШдаги мактаб ўқитувчиларининг йиллик даромади билан баробардир.

6. Яна бир қизиқ жиҳати, уй ҳайвонларига энг кўп маблағ сарфловчилар ёки ниҳоятда ўқимишли ёки умуман таълим олмаган кишилардир. Магистратурани битирган ёки докторлик даражасига эришганлар аҳолининг бошқа қисмига нисбатан ўз ҳайвонларига сахийроқ, меҳрибонроқ. Ёш даражасига кўра эса, асосан ўрта ёшлилар (33-40) ёки нисбатан катта ёшлилар (55-64) уй ҳайвонларига кўпроқ эгалик қиладилар. Бу билан боғлиқ турли ўрганишлар мавжуд, лекин Форбес нашрининг ёзишича, бу кўпроқ инсонларнинг меҳр бериш истаги ва ҳайвонлар бу борада энг мақбул ечим билан бўглиқ экан. Яъни ўзаро муносабатлар ёки фарзанд тарбияси америкаликлар учун ўта масъулиятли, оғир ва машмашалироқ иш экан. Ҳайвонлар эса доим ҳам меҳр ва масъулият талаб қилавермайди ҳамда нисбатан арзонроқ тушади. 33 миллион аҳоли эса уй ҳайвонлари сабаб, фарзандли бўлишни ёки оила қуришни кечиктирадилар.

7. Ҳайвонлар суғуртаси ҳам энг кенг тарқалган, том маънода модага айланган ишдир. 2021 йилда Қўшма Штатларда жами 82% ит суғурталанган эди, бироқ умумий барча ҳайвон турларига қарасак, бу жуда кичик кўрстак, атиги 2,5%, лекин Ковид-19 пандемиясидан сўнг бу рақамлар шиддат билан ўсиб бориши кузатилмоқда. Юқорида келтирилганларни инобатга олсак, уй ҳайвонлари саноати (pet industry) мамлакатнинг иқтисодий ҳолатини қисман гавдалантира олади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. <https://fortunly.com/statistics/pet-spending-statistics/>
2. <https://finmasters.com/pet-spending-statistics/>
3. <https://www.forbes.com/sites/erinlowry/2016/08/31/why-are-so-many-millennials-opting-for-pets-not-parenthood/?sh=606647a43963>
4. <https://www.economist.com/graphic-detail/2020/02/11/which-country-spends-the-most-on-its-pets>

5. <https://www.worldatlas.com/articles/how-big-is-the-us-dog-walking-business.html>
6. <https://www.indeed.com/career/dog-walker/salaries>
7. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/34740-andijon-viloyati-aholi-jon-boshiga-umumiy-daromadlari-2>

MAMLAKATIMIZDA TA'LIMDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

*I.Muradov
Ismoiljonov J.R.
Ruziyeva G.M.
Ismatova Y.A.*

Annotatsiya. Bugungi kunda insonning o'zi va dunyoni tushunishida, ilmiy faoliyatdagi ziddiyatlarning yechimini topishda va global muammolarni hal qilishda olimning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish zarurligining ilmiy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoyi va tashabbuskor kadrlarni tayyorlash katta e'tibor talab qiladi.

Tayanch so'zlar: Talim, kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, o'quv rejasi, mutaxassislik fanlari, maxsus fanlar, talim berish jarayoni, teskari aloqa-bilim olish, didaktika, didaktik jarayon. Maxsus fanlar, ta'lim-tarbiya predmeti, maqsadi, vazifalar, qonuniyatlar, tamoyillar, o'qitish jarayoni, tizim, kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq iqtisodiyotning barcha sohalardagi kabi ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar o'zining ijobiy natijasini ko'rsatmoqda. Har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoyi va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Rivojlangan va taraqqiy etgan davlatlar safidan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O'zbekistonimiz, sanoatning barcha tarmoqlari, jumladan, ta'lim sohasida ham ilg'or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta'lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishga harakat qilmoqda. Ayni paytda oliy ta'lim muassalarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratish muammolariga qaratilgan diqqatga sazovor ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun xorijiy mamlakatlarning magistratura ta'lim jarayonlari tajribalari bilan almashinuv yaxshi samara bermoqda. Ta'lim sohasida halqimizning boy merosi, buyuk mutafakkirlarimizning g'oyalari va davrimizning ilg'or yangiliklarini o'zida mujassamlashtirgan metodik tizimning yaratilishiga asos bo'lmoqda. [1.2].

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotida tub yangilanishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan, xom-ashyo yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayayotganligi Kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishning muhim omiliga aylangan. Shu sababli ham, Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri – ishlab chiqarish hisoblanadi. Ishlab chiqarish–pirovard natijada kichik mutaxassis kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga, kasbiy layoqatiga baho beradigan bosh mezondir. Hozirgi kunda respublikamizda ishlab chiqarishning o'rta maxsus, kasb–hunar ta'limi tizimidagi mavqeyini kuchaytirish maqsadida kasb–hunar ta'limi, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini izchillik bilan ta'minlash, tayyorlanayotgan kichik mutaxassis kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan aniq talablar qo'yish, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning buyurtmalarini shakllantirishning turli xil mexanizmlarini ishlab chiqishga asosiy e'tibor qaratilmoqda.[2].

Hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.

Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.[3].

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847- sonli Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilinishi bugungi kunda oliy ta'lim muassasalariga yanada ko'proq vazifalarlar va maqsadlarni belgilab beradi. Konsepsiyada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, Respublika oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytinglarida o'z munosib o'rinlarini egallashlari, o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish, ishlab chiqarish korxonalarini va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli

hamkorligini yo'lga qo'yish va boshqa bir qator ustuvor yo'nalishlar belgilab olingan.

Aytish lozimki, mazkur masala va muammolarni hal qilish uchun respublikamizda keng ko'lamda ta'lim-tarbiya ishlari va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan katta tajribaga, o'qishga tashkiliy va amaliyotga oid ishlar olib borilmoqda. Oliy o'quv yurtlari yangi jihozlar, kompyuter texnikasi, zamonaviy buyumlar va vositalar bilan ta'minlanmoqda, iqtidorli talabalar rivojlangan mamlakatlarga o'qishga yuborilmoqda. Yangi-yangi institutlar, universitetlar, akademik litseylar tashkil etilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar tuzilmoqda. Mazkur olib borilayotgan ko'p qirrali ishlar asosan, tayyorlanayotgan xodimlarning sifatini oshirishga qaratilgan. [3].

Issiqlik energetikasi kafedrasida maxsus fanlarni o'rgatish jarayoni turli xildagi ko'rgazmali o'quv qurollarini ko'rsatish bilan, mashqlar, misollar, va dasturlardan foydalanishni o'rgatish jarayoni, bu mashg'ulotlarning o'zaro uzviy bog'langanliklari bilan olib borilishi lozim.

Kompyuter texnikasidan dars berishda kompyuterlarga oid barcha ko'rgazmali texnik qurollar, uning qismlari bo'lishi lozim. Shuningdek, talim berishning zamonga xos texnik vositalaridan, dasturlardan, diafilmlar, slaydlar, kinofilmlar, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi kompyuterlardan hamda ularning dasturlaridan, qo'llanmalaridan foydalanish kerak. [4].

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni qayta qurish — Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur (qonun) asosida jahon andozasi talablariga mos tushuvchi mutaxassis xodimlarni tayyorlash; mutaxassislar tayyorlashdagi sifatni oshirish: mutaxassis tayyorlashda ko'p pog'onali talim tizimiga o'tib, 4 yil davomida fundamental fanlar bo'yicha talim berib, bakalavr va boshqa mutaxassislar tayyorlash; tadqiqot qilinayotgan mutaxassislikka xos, dunyo talim andozalari talablariga mos tushuvchi talim standartlarini ishlab chiqarish va ularni hayotga tatbiq etish; oliy talimda o'qitishning ko'p bosqichli tizimiga o'tish uchun zarur bo'lgan o'qitishning tashkiliy metodikasini va nazariy metodologiyasini ishlab chiqarish va sohalarga xos adabiyotlarni yaratish va boshqalar. [5].

O'zbekiston Respublikasining Talim to'g'risidagi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi shaxsni birinchi o'ringa qo'ydi. Faqat yuksak bilim va malakalarni mustahkam egallagan, shu bilan birga yuksak ma'naviyatli va milliy o'zligini chuqur anglagan yosh mutaxassislargina O'zbekistonni XXI asrda har tomonlama ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqishi muqarrar. [6].

Maxsus kasb fanlari talimi uqituvchilarini tayyorlashni takomillashtirishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf qilishni quyidagi asosiy yo'nalishlarda: maxsus

fanlar mazmunini integratsiyalash, amaldagi dastur va rejalarni zamon talablariga mos ravishda qayta ishlash va to'ldirish, maxsus fanlar talimning samarali shakl va uslubiyot, metodlarini izlab topish, bakalavrlarning mustaqil o'quv-metodik faoliyatini kuchaytirish, kabilarda olib boriladigan ishlarda o'z aksini topishi mumkin. Oliy o'quv yurtlarida maxsus fanlar va umum pedagogika va xususiy metodik fanlar mazmunini integratsiyalash vazifasi turibdi. Keyingi yillarda o'quv predmetlarini tabaqalashtirib o'qitish g'oyasi maxsus fanlar, umum talim va pedagogika fanlarini bir-biridan sezilarli darajada ajratib qo'ydi. Shu sababli bu fanlarni bir-biriga yaqinlashtirish yani integratsiyalash mexanizmini topishni xayot taqozo etmoqda.[7].

O'qitishdan asosiy maqsad talabalarga yurtimizda ishlab turgan yirik sanoat korxonalarida qurilmalarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, ekologiyadagi o'rni va foydalanish prinsiplarini, hamda texnik muammolar bo'yicha to'g'ri echimlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi, dunyoqarashlarini ke ngaytiradi.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent., 2000. -245 b.
2. Islom Karimov. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. 1-tom, 117-118 betlar
3. Ziyomammedov Abdullayeva B.Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot «Ma'naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma-Toshkent, Abu Ali Ibn Sino nomli tibbiyot nashriyoti, 2001.
4. Ishmuhmedov R, Abduqodirov A., Pardaev A. «Ta'limda innovatsion texnologiyalar». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste'dod» jamg'armasi., Toshkent-2008 y.
5. Raximov O.D., Turgunov O.M. va b. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. /Toshkent, «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2013y., 170-b.
6. Sh.K.Maxkamdjanova, K.M.Maxkamdjanov «Energetika sohasida talabalarning bilim darajasini faollashtirish uslubiyati» ToshDTU xabarleri. Toshkent-2006-y

TILSHUNOSLIKDA PEDAGOGIK TERMINLAR TADQIQI

*Husanxo'jayev Obidxon,
NamDU tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogic terminologiyaning lingvistik jihatdan o'rganilishiga oid tadqiqotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotlarga munosabat bildiriladi.

Kalit so'zlar: pedagogika, tadqiqot, terminologiya, leksikografiya, tilshunoslik, lug'at, tezaurus, sistema, tamoyil.

So'nggi yillarda "termin" o'zbek va jahon tilshunosligida eng muhim tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. To'g'ri, "termin" tushunchasiga aniqlik kiritish muammosi bir necha avlod vakillari diqqat-e'tiborida bo'lgan. Biroq shuni ta'kidlash joizki, bugungi ijtimoiy hayotdagi tub burilishlar: ilm-fan rivoji, texnika taraqqiyoti, iqtisodiy islohotlar terminni tadqiq qilishni taqozo etmoqda. [10.11] Fikrimizcha ham, barcha sohalarda bo'layotgan o'zgarishlar terminlar sistemasini yanada chuqur tahlil etishni ko'rsatmoqda. O'z navbatida, V. M. Leychik shu masala yuzasidan to'xtalib, shunday deydi: "Agar XX asr birinchi yarmida tilshunoslar terminni lug'at tarkibining uzoq bir periferiyasi sifatida qarashgan bo'lsa, bugungi kunda, ilmiy texnika inqilobini boshdan kechirganimizdan keyin unga munosabat keskin ravishda o'zgardi. Ayrim mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra rivojlanayotgan tillardagi yangi leksikaning 80-90%ni terminlar va boshqa maxsus LB (leksik birlik)lar tashkil etishini inobatga olish kerak, chunki ko'p olimlar tomonidan e'tirof etiladigan "til intellektuallashuvi" ma'lum darajada tilda maxsus leksikaning keng qo'llanilishi bilan bog'liq"[10.11].

Rus olimasi I. V. Kichayeva ta'kidlaganidek: "Pedagogik terminologiyaning keng ko'lamda o'zgarib borishi yangi tasavvurlarni yuzaga keltiradi, an'naviy pedagogik leksikografiya an'anaviy tamoyillar asosida yangi tasavvurlarni yuzaga keltira olmaydi. Pedagogik terminlarning tez sur'atlar bilan amaliy natijalarga erishuvi yangi lug'atlar va yangi tasavvurni yuzaga keltiradi." [2.18]

XX asrning so'nggi va XXI asrning boshlarida rus lug'atshunosligida pedagogik terminologiya sohasida katta yutuqlarga erishildi. "Rossiyskaya pedagogicheskaya ensiklopediya" (1993-1998) va "Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar" (2002) larning nashr etilishi, shuningdek, bir qator pedagogik o'quv va tezaurus lug'atlarning o'quv jarayoniga tatbiq etilishi ta'lim tizimida faoliyat olib borayotganlarni yangi tasavvurlar bilan boyitdi.

O'zbek pedagogik terminologiyasida ham sezilarli yutuqlarga erishildi. Taniqli olim R. X. Djurayev va boshqalar hamkorligidagi "Pedagogik atamalar lug'ati" (2008), J. Hasanboyev va boshqalar hamkorligidagi "Pedagogika fanidan izohli lug'at" (2006), G. Ibragimova to'plagan va tuzgan "Ta'lim - tarbiya tizimiga

oid atama va izohli lug‘atlar to‘plami“ (2010) ning yuzaga kelishi o‘zbek pedagogik terminologiyasini yangi pedagogik terminlar tasavvuri bilan kengaytirdi.

Ma‘lumki, keyingi yillarda pedagogik terminologiyaning ko‘lami kengaydi. Nafaqat, ilmiy va o‘quv jarayonda, shuningdek, internet tizimida ham pedagogik terminologiya bilan bog‘liq terminlarning yuzaga kelishi bu sohada bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi. Demak, pedagogik terminologiyani keng ko‘lamda o‘rganish va tahlil etish lingvistika va pedagogika fanlari uchun yangicha yondashuv asosida ish olib borishni belgilaydi.

Tabiiyki, har qanday tilda nafaqat yangi leksik birliklar paydo bo‘ladi, shuningdek, semantik strukturasi ham o‘zgarishlar yuz beradi. Yangi so‘z ma‘nolari hosil bo‘ladi. Til lug‘at tarkibiga kirib kelgan so‘zlar yangi ma‘no bilan yangi tushunchani ifodalaydi. Bunday holat pedagogik terminlarda ham o‘z ifodasini topadi. Anglashiladiki, insonning intellektual va ijodiy faoliyati bilan bog‘liq ilm-fan, texnikaning tez sur‘atlarda rivojlanishi har qanday tilda yangi terminlarning paydo bo‘lishi, lug‘at tarkibidan joy olishiga sabab bo‘ladi. Jumladan, milliy ta‘lim sistemasidagi yutuqlar, shuningdek, jahon ta‘lim sistemasida faol ishlatilayotgan terminlardan milliy ta‘lim tizimida foydalanishi lug‘at boyligimizni ta‘lim oid terminlar paradigmasi bilan kengaytiradi.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, zamonaviy pedagogik ta‘lim va tarbiyaning rivojlanib borishi, jahon, jumladan, o‘zbek pedagogikasi fanida ham yangi nazariy va amaliy tadqiqotlarni yuzaga kelishi ham pedagogik terminosistemani antropotsentrik yondashuv asosida o‘rganishni talab etmoqda. Sohada olib borilayotgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida yangi pedagogik terminlar bilan boyib borishi milliy pedagogikada ilg‘or innovatsion g‘oyalarning nazariy-amaliy ahamiyatini kuchaytirmoqda. Ma‘lum bo‘ladiki, nazariya va amaliyotni chuqur o‘rganish yangi innovatsion g‘oyalarning kelib chiqishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Albatta, zamonaviy ilmiy tadqiqotlardagi fanlararo aloqadorlikning ilmiy natijalari katta innovatsion yutuqlarga olib kelishini ham davr ko‘rsatmoqda. Ana shu innovatsion yutuqlarning nazariy va amaliy ahamiyatini jamiyatga tatbiq etishda til muhim vazifani bajarmoqda. Demak, ilm va fanning innovatsion yutuqlar bilan rivoj topishi tilning yangi terminlar bilan kengayishiga imkon yaratmoqda.

Anglashiladiki, til doimiy rivojlanib boruvchi belgilar sistemasidir. Unda yangi so‘zlar paydo bo‘ladi, bir tildan boshqa tilga so‘zlar o‘zlashadi va o‘zlashgan so‘z qabul qilgan tilning lug‘at boyligiga aylanadi. Bu terminlarga ham xos hisoblanadi.

Shu o‘rinda rus olimi G.I. Saransevning fikrlari e‘tiborga loyiq. U pedagogik terminlarning xorijiy va milliy pedagogikaga tez sur‘atlar bilan kirib kelishini quyidagicha izohlaydi:

- 1) ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlarning xalqaro jarayonda ro‘y berib borishi;
- 2) pedagoglarning g‘arb pedagogik konsepsiyalarini kuzatib borishi;
- 3) novator pedagoglar o‘zlarining amaliyot ishlarida yangi pedagogik terminlarni qo‘llashi va uni pedagogika faniga olib kirishi;
- 4) pedagoglarni doimiy ravishda jalb qilib kelingan mafkuraviy ishlarga jalb qilmaslik;
- 5) intergrativ – differensiallikning keng ilmiy doiradagi tadqiqotlarda olib borilishi.[6. 10]

Fikrimizcha, G. I. Saransevning rus pedagogik terminologiyasiga bo‘lgan qarashlari o‘zbek milliy pedagogik terminologiyasining kengayib borishi bilan o‘xshashlikka ega. Chunki bunday holat o‘zbek milliy pedagogikasi terminlarida ham yuz bergani ma‘lum.

A. Sh. Sobirovning ta’kidlashicha, 1994-yilda N. Usmonov “O‘zbek tilining pedagogik terminologiyasi” mavzusida nomzodlik ishi yoqlagan edi.

O‘tgan yillar ichida xalq maorifi tizimiga uzuluksiz ta’lim tizimi, *DTS (Davlat ta’lim standartlari), reyting, test, kollej, akademik litsey, pedagogik innovatsiya, masofadan turib o‘qish, kompyuter tenologiyasi, modul usuli, gistogramma, bakalavr, magistr, audio-video* kabi behisob leksemalar kirib keldi, yuqorida tilga olingan monografiyada ularning birortasi ham keltirilmagan. Demak, pedagogik atamalar tizimi yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Endi uni davr ruhiyatiga moslab ideografik planda qaytadan tadqiq qilish lozim. [8.124] A. Sh. Sobirov to‘g‘ri ta’kidlagandek, o‘zbek tilshunosligida pedagogik terminlar yirik monografik planda hozirga qadar ham tadqiq etilmadi.

XX asrning so‘ngi yillari va XXI asrning boshlarida nafaqat jahon tilshunosligida, jumladan, turkiy tilshunoslikda ham pedagogik terminlarning lingvistik tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko‘lami kengaydi. Orudjaliyeva Asiya Sattar qizining ozarbayjon tilidagi pedagogik terminlarning lingvistik tahliliga bag‘ishlangan ”Lingvisticheskiye osobennosti pedagogicheskix terminov v Azarbaydjanskom yazыkom” nomzodlik dissertatsiyasi[4.19], M. Dj. Rejapovanning turkman tilidagi pedagogik terminlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi nomzodlik dissertatsiyasi[5.22], shuningdek, N. O‘. Usmonovning o‘zbek tilidagi pedagogik terminlarning o‘ziga xususiyatlarini ochib beruvchi nomzodlik dissertatsiyasi[9.23] ni ko‘rsatish mumkin.

Keyingi yillarda tilshunoslikda pedagogik terminlarning lingvistik tadqiqi bir qator tilshunoslar tomonidan amalga oshirildi. Jumladan, pedagogik terminlarning

qiyosiy tahlili bag'ishlangan ilmiy tadqiqot bilan bog'liq bir qator ishlarni kuzatishimiz mumkin. Z. K. Samiyevning "Lingvisticheskiye analiz terminologii otrasli obrazovaniya" (na materiale tadjikskogo inemeskogo yazыkov)[7.25] mavzusidagi dissertatsion ishida ta'lim bilan bog'liq pedagogik terminlarni tojik va nemis tillarida qo'llanishi muqoyasa qilinadi. Har ikki til ta'lim tizimidagi terminlarning o'ziga xususiyatlari tahlil doirasiga tortiladi. Ta'lim tizimidagi o'xshash va farqli tomonlar ochib beriladi. B. R. Djurakulov nomzodlik dissertatsiyasida [1] tojik va ingliz tili ta'lim tizimidagi o'xshash va farqli tomonlarga e'tibor qaratib, qiyosiy tahlil etadi. Shuningdek, E.M. Yusufaliyev nemis va o'zbek tillari materiallari asosida ta'lim-tarbiya terminlari qiyosan tahlil etadi. Bunda pedagogika fanining terminologik apparatini funksional hamda struktur nuqtayi nazardan o'rganadi va nemis va o'zbek tillaridagi fundament pedagogik tushunchalarni ifodalovchi "Bildung" va "Erziehung "Ta'lim" va "Tarbiya" terminlarini chog'ishtirib o'rganib, ularning terminologiyasiga e'tibor qaratadi.[11.52] Pedagogik terminlar ayrim tilshunoslar tomonidan maqola [3] tarzida ham berildi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligida N. O'. Usmonovdan keyin monografik planda pedagogik terminologiya lingvistik tadqiq etilmadi.

Anglashiladiki, mazkur ilmiy tadqiqot ishida XX asr oxirlari va XXI asrda o'zbek tiliga o'zlashgan pedagogik terminlarning lingvistik tahlilini ochib berish nazarda tutildi. Chunki mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy pedagogika tizimiga behisob yangi leksik birliklar kirib keldi. Bu kirib kelgan pedagogik terminlar ta'lim tizmining barcha sohalarida faol qo'llana boshlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джуракулов Б.Р. Структурно-семантический анализ педагогических терминов в разносистемных языках (на материале таджикского и английского языков). <https://www.tgpu.tj>>Jurakulov B.R> avto_ru
2. Кичева И.В. Формирование понятийно-терминологической системы педагогики в 90 -е годы XX века. автореферат дисс.на соис.учен.степен.док.пед. наук. Пятигорск. 2004. С.18.
3. Комилова Д. Педагогик терминларнинг ўрганилишига доир. Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. №6. 103-106 б.
4. Оруджалиева Асия Саттар кызы. Лингвистические особенности педагогических терминов в Азербайджанском языке. Автореферат. дисс. на учен. степ.кан.филлол.наук. Баку, 1990. -С. 19.
5. Режапова М.Дж. Педагогическая терминология туркменского языка. Автореферат. канд.диссер. Ашхабад. 1992. -С.22.

6. Саранцев Г.И. О гуманитаризации, технологизации и стандартизации образования. //Педагогика. 1998. №8, С.10.
7. Самиев З.К. Лингвистический анализ терминологии отрасли образования (на материале таджикского и немецкого языков). Автореферат. дисс. на соис. учен. степ. кан. фил. наук. Душанбе. 2014. - С. 25. <http://www.rtsu.tj>
8. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш.-Тошкент, Маънавият. 2004. 124-бет.
9. Усмонов Н.Ў. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси. Автореферат. филол.фан.ном.илмий. дар.олиш. учун. ёзил. Тошкент. 1994.23-б.
10. Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк терминологияси. -Тошкент., Фил.фан.бўйича фалсафа фан.док.(PhD) дисс. 2020.11-бет.
11. Юсуфалиев Э.М. Таълим ва тарбияга оид педагогик терминларнинг лингвистик тадқиқи (немис ва ўзбек тиллари материаллари асосида). Филолог. фан. бўй. фалсафа. док (PhD)дисс. автореферати. Андижон. 2022.-Б.52.

KONSEPT VA UNING LINGVISTIKADAGI TALQINI

Yigitaliyeva Shohsanam Isog'ali qizi

Qo'qon DPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va madaniyatning o'zaro chambarchas bog'liqligi, konseptning lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikdagi ahamiyati, til va nutqning amaliy imkoniyatlarini yaratib beruvchi vositalardan biri konsept ekanligi, konsept haqida tilshunos olimlarimizning lingvistik qarashlari yoritib berilgan.

Abstract. In this article, the interrelationship of language and culture, the importance of the concept in linguo-culturology and cognitive linguistics, the fact that the concept is one of the tools that create the practical possibilities of language and speech, and the linguistic views of our linguists about the concept are highlighted.

Абстрактный. В данной статье рассматривается взаимосвязь языка и культуры, значение концепта в лингвокультурологии и когнитивной лингвистике, то, что концепт является одним из инструментов, создающих практические возможности языка и речи, а также лингвистические воззрения наших лингвисты о понятии выделены.

Kalit so'zlar. Til va madaniyat, til va nutq, konsept, obraz, paradigma, lingvistik talqin, tushuncha

Key words. Language and culture, language and speech, concept, image, paradigm, linguistic interpretation, concept

Ключевые слова. Язык и культура, язык и речь, концепт, образ, парадигма, лингвистическая интерпретация, понимание

Konsept - bu shunday narsaki, u soʻz belgisi semantikasida oʻzgarishlarga uchramaydigan va, aksincha, til-nutqning amaliy imkoniyatlarini yaratib va ularni tanlashda aniqlab, soʻzlashuvchilar fikrini mazkur tilda yoʻnaltiradi. Konsept namoyon boʻlishining birinchi shakli obrazlardir. Konseptning mazmuniy shakli ramziy belgi hisoblanadi. Real belgini boshqalardan oʻzlashtirib boʻlmaydi; u tabiiy til taraqqiyoti natijasida tildan oʻsib chiqadi. Obrazni tasvirlash mumkin, tushunchani aniqlash mumkin, lekin belgini izohlash kerak boʻladi. Belgi faqatgina obraz va tushunishni sintez qilmaydi, balki bundan chuqurroq - bu mavjudlik va borliq sintezi, konseptga uning shakllaridan biri sifatida yaqinlashishidir.

A.Vetrov soʻz maʼnolari ortishi jarayonining davomiy bosqichlari nomlanishi uchun tanlangan atamalarning tasodifiy emasligini taʼkidlaydi⁸⁶. Ular oʻzining ilk maʼnolaridanoq chuqur mazmunga ega. Ularni boshqaruvning grammatik belgilari ajratib turadi: obraz - nimani? va maʼno - nimani? lekin tushunish - nimani? va nima haqida? Konsept umuman hech qanday savol bilan kengaytirilmaydi, chunki aynan u – ham xulosa nuqtasi, ham tilda jonlilik semantik taraqqiyotining yangi sathida jarayonning tugallanishidir; u koʻpchilik shakl va maʼnolar munosabatining aks ettiriluvchi umumiy mazmuni manbasidir.

Konsept mohiyatini toʻliq qamrab ola bilmagan, lekin doim toʻliqlikka intilgan holda fikr uzviy uch harakatni amalga oshiradi: sanʼatda koʻrish va idrok etish, fanda topish va tushunish, madaniyatda ishonish va nom berish.

Konsept, koʻrinish (obraz)da boʻla turib, darhol belgiga, shakllar tugalligiga intiladi, chunki uning tabiiy mavjudlik koʻrinishi - soʻz - ramzdir, mazmuniy ikkilamchiligi (tushunilgan koʻrinish: tushunish - obraz, obrazli tushunish) esa mohiyatidan kelib chiqib uning ramziga aylanadi. Aytilganlarning barini inobatga olib, muallif umumiy holda konseptning turlicha tushunilishini qayd qiladi. Universalistik nuqtai nazardan konsept oʻz tarkibiy shaklini oʻzgartirgan holda belgida yoʻqolib ketuvchi aktdir. Konsept atamasi tilshunoslik tadqiqotlarida XX asrning birinchi yarmidan paydo boʻla boshladi. Bu atama ingliz tiliga oid soʻz boʻlib, (*concept*), rus tilida ponyatiye (tushuncha) atamasi bilan tarjima qilinadi. Keyinchalik bu atama tushuncha atamasi bilan aralashtirib yuborila boshlangach, uning tom maʼnodagi mazmunini aniq shakllantirishga qaratilgan ishlar tadqiq qilina boshlandi. «Konsept» tushunchasi kognitiv fan va lingvokulturologiyaning asosidir. Ammo, «konsept» atamasi chet elda ham, mahalliy tilshunoslikda ham keng qoʻllanilishiga qaramay, hozirda uning yagona izohi yoʻq. Hozirgi kunda

tilshunoslikda konsept atamasini aniqlash uchun bir qancha yondashuvlar mavjud: Yu.S.Stepanov konseptni shunday ta'riflaydi: «inson ongida madaniyat o'chog'i, bu madaniyat shaklida insonning aqliy olamiga kiradigan narsa » [22]. Shuningdek, Yu.S.Stepanov ta'kidlaganidek, «konsept» bu «ma'lum bir so'z bilan birga keladigan g'oyalar, tushunchalar, bilimlar, uyushmalar, tajribalar to'plami». (Cognition-bilish, cognize-tushunmoq, bilmoq cognitive-bilishga oid, cognition-aql, tafakkur). Insonning dunyoni, voqelikni bilishi, uni idrok etishida uning faoliyati natijasi hisoblangan tafakkurning o'rnini alohida ta'kidlash kerak. Kognitiv tilshunoslikning asosiy birligi sifatida konsept qaralishi nuqtai nazaridan o'zbek tilini kognitiv sferada o'rganish yuzasidan olib borilayotgan qator tadqiqotlarning markaziy nuqtasida ham konseptlar birinchi planda turadi. O'zbek tilshunosligining yangi shakllanayotgan paradigma (yo'nalish, oqim)larida konsept termini bot-bot qo'llaniladigan bo'ldi. Shu sababli uning lug'aviy ma'nosini anglash uchun «O'zbek tilining izohli lug'ati»dan ko'rib o'tamiz: 2 tomli lug'atda bu so'z berilmagan. Haqiqatdan ham, lug'at yaratilgan davrda konsept na ilmiy, na falsafiy manoda qo'llanar edi. Biroq uning talqini yangi –5 tomli izohli lug'atda ham uchramadi. SHuningdek, «Lingvistik terminlarning izohli lug'ati» (A.Hojiyev)da ham berilmagan. Demak, atama o'zbek ilmida hali mustahkam o'rnashmagan yoki terminologik neologizm sifatida mavjud.

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, jahon va rus tilshunosligida konsept quyidagi manolarda qo'llanganligi malum bo'ldi: 1. Bilimlar majmuini tashuvchi lisoniy birlik. 2. Milliy-madaniy semasi asosida baholanuvchi lisoniy birlik. 3. Pragmatik sistema.

Til bilim manbai ekan, demak, xar bir leksik birlikda shu til jamiyat tomonidan xosil qilingan bilim majmui mavjud. Ana shu bilim majmui nuqtai nazaridan baholangan lisoniy birlik kognitiv konsept maqomida bo'ladi. Quyida ana shu konsept xususida so'z yuritiladi. Har qanday bilim bosqichma-bosqich hosil qilinadi. Xususan, ona tilimizning kognitiv talimi dasturida bilim hosil qilishning quyidagi bosqichlari qayd etilgan: 1) obektni kuzatish; 2) izlanish (obekt qatorini boyitish);

- 3) siradagi har bir hodisani sharhlash; 4) qiyoslash;
- 5) umumiylikni aniqlash; 6) farqlarni topish; 7) tasniflash;
- 8) aloqadorliklarni aniqlash; 9) hukm chiqarish;
- 10) xulosani amaliyotga tadbiq etish.

Demak, kognitiv konsept zamiridagi bilim mazkur ssenariy asosida shakllanadi va uni idrok qilish ham shu asosda kechadi. Bosqichlardagi kuzatish, qiyoslash, tasniflash va hukm pog'onalari – bilim hosil qilishning asosiy va muhim bosqichlari hisoblanadi. Har qanday bilim kuzatish, qiyoslash, tasniflash asosida

hosil qilingani kabi bilim majmui sifatidagi konsept ham ana shu asosida tiklanadi va idrok etiladi. Konseptuallashtirish hodisasi borliqning til lisoniy kartinasidagi o‘rnini aniqlashdan iborat.¹

O‘zbek tilshunosligi nuqtai nazaridan sathlararo tadqiq obekti sifatida topishmoqlar masalasidagi tahlillar tadqiqot ishining navbatdagi bobida ko‘rib o‘tiladi. Konsept va uning lingvistikadagi talqinlarini umumlashtirar ekan, S.G.Vorkachev quyidagi xulosaga keladi: “konsept - bu jamoaviy bilim, lisoniy ifodaga ega va etnomadaniy xususiyatlar bilan qayd qilingan (oliy ma’naviy qadriyatlarga tegishli) ong birligi”⁸⁸. A.A.Vetrov qayd qilganidek, konseptlarning madaniy semantik tahlili ko‘p hollarda so‘z va idiomalarning shunday ataluvchi “ichki shakli”ni aniqlashtirishga asoslanadi, ya’ni so‘z ma’nolari, ularning tuzilishini tushungan, til tizimining lisoniy elementlari o‘rtasidagi semantik munosabatni jonli anglagan holda motivlanganligi hisobga olinadi. Mazkur atama birmuncha izoh talab etadi. V. Gumboldt fikricha, so‘zning ichki shakli - bu “fikrning tovush bilan birlashish usuli”. V.V.Vinogradov so‘zning ichki shaklini “ma’no yoki so‘zni qo‘llash negizida yotuvchi obraz, u faqatgina shu moddiy va ma’naviy madaniyat, shu til tizimi fonidagina tushunilishi mumkin...” deya ta’kidlaydi. A.A.Potebnyaga ko‘ra, so‘zning ichki shakli - bu “so‘zning mayda badiiy obrazidir”, “yaqin etimologik mazmuni”, ya’ni til sohiblari tomonidan anglanadigan ma’noning so‘zdagi tasavvur qilinish usuli. Frazologik birliklarning ichki shakli nisbatan “turg‘un”, u frazeologik ma’noning asosiy qismi hisoblanadi. “Jonli ichki shakl” deb til sohiblari tomonidan anglanuvchi nominatsiya belgilari tushuniladi. Til konsepsiyasining zamonaviy neogumboldtian yo‘nalishiga ichki shakl belgisiga boshqacha yondashuv xos: bu yerda mazkur atama ostidagi leksik birliklar qatlamida ularning tushunchaviy mazmuni yotadi.

O‘rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, til, madaniyat va etnos o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. FBlarni tadqiq qilish bosqichida ma’lum bo‘ldiki, faqat tilning formal tizimini va uning kommunikativ funksiyalarini tadqiq qilish tilning madaniyat yaratilishi jarayonidagi real o‘rnini cheklab qo‘yadi. Tilga, undagi FBlarga ularning mohiyatini aniqlash uchun muhim bo‘lgan boshqacha yondashuv FBlarni faqat muloqotning arzimagan bir ifoda vositasi sifatida emas, balki, eng avvalo, xalq madaniyatining ajralmas qismi ko‘rinishida faoliyat ko‘rsatadigan o‘ziga xos element sifatida tadqiq qilishda ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

¹ Vorkachev S.G. Metodologicheskoye osnovaniya lingvokonseptologii//Teoreticheskaya i prikladnaya lingvistika. Вып. 3: Aspekty metakommunikativnoy deyatelnosti. Voronej, 2002,

1. Vorkachev S.G., Metodologicheskiye osnovaniya lingvokonseptologii // Teoreticheskaya i prikladnaya lingvistika. Вып. 3: Аспекты
2. metakommunikativnoy deyatelnosti. Voronej, 2002,

NEFT VA GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA YUZAGA KELUVCHI KORROZIYALANISHDA GETEROSIKLIK BIRIKMALARDAN INGIBITORLAR SIFATIDA FOYDALANISH

Olimov J.T

Jasurolimov8384@gmail.com

Annotatsiya. Neft va agzni qayta ishlash korxonalarida hamda sanoatdagi asosiy muammolardan biri metallarning korroziyalanishini hisoblanadi. Bu esa yangi antikorroziyon ingibitorlarni ishlab chiqishni talab etmoqda.

Geterosiklik birikmalarning asosiy vakili ingibitorlik hususiyati yuqori bo'lgan triazol birikmalarini tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: Korroziya, neft, benzimidazol, ingibitor, triazol.

Аннотация. Коррозия металлов является одной из основных проблем нефтегазоперерабатывающих предприятий и промышленности. Это требует разработки новых антикоррозионных ингибиторов.

Анализируются соединения триазола, основного представителя гетероциклических соединений с высокими ингибирующими свойствами.

Ключевые слова: Коррозия, нефть, бензимидазол, ингибитор, триазол


Abstract. Corrosion of metals is one of the main problems of oil and gas processing enterprises and industry. This requires the development of new anti-corrosion inhibitors.

Compounds of triazole, the main representative of heterocyclic compounds with high inhibitory properties, are analyzed.

Key words: Corrosion, oil, benzimidazole, inhibitor, triazol

1-Kirish. Neft va gazni qayta ishlash korxonalarida yuzaga keluvchi korroziyalanish sabablari O_2 va S tutgan birikmalar va ularning tasiri natijasida uzoq muddatga mo'ljallangan quvurlar hamda sanoat qurilmalari korroziyaga uchrashi, ularga texnik hizmat ko'rsatish hamda atrof muhitga keltiradigan zarari juda katta iqtisodiy zarar keltirishiga sabab bo'ladi. Ingibitorlar hozirda qo'llaniladigan eng amaliy va iqtisodiy jihatdan samarali usullardan biridir. Ingibitorlar qutbli guruhlarni o'z ichiga olgan organik molekulalar bo'lishi mumkin. [1-4] Shu jumladan N, S va O atomlari va geterotsiklik konyugatsiyalangan qo'sh bog'lar va ingibitor molekulalar metall yuzalarga adsorbsiyalanishi va sirdagi faol joylarni to'sib qo'yishi va shu bilan korroziya tezligini kamaytirishi mumkin. [5-7]

Bundan tashqari, N, S va O atomlar Fe bilan kimyoviy aloqa hosil qilishi mumkin va agressiv muhitda po'lat sirtini himoya qiladi.










1-rasm: Inhibitorlarning tasnifi

2-S, O va N o'z ichiga olgan geterosiklik birikmalar

So'nggi paytlarda N-o'z ichiga olgan organik birikmalar aminokislotalardir va ularning hosilalari neft va gazda ingibitor sifatida muvaffaqiyatli ishlatiladigan po'lat korroziyasining potentsial ingibitori sifatida taklif qilingan. Ayniqsa imidazolin va uning hosilalari o'zining mukammal adsorbsion hususiyati va kimyoviy plyonkasi tufayli asosiy e'tiborni tortmoqda. DFT va elektrokimyoviy natijalar shuni ko'rsatadiki, benzimidazol hosilalari p-elektron zichligi delokalizatsiya qilingan hududdan (N=C=N) eng yuqori egallangan molekulyar orbital (HOMO) orqali metallning eng past bo'sh bo'lmagan molekulyar orbitaliga (LUMO) berib, metall yuzasiga adsorbsiyalanadi. Benzimidazol, imidazolin amidlari, imidazolin aminoamidlari va ularning hosilalari kabi azotga asoslangan organik birikmalar neft va gaz sanoatida ingibitor sifatida muvaffaqiyatli qo'llanilgan.[8-9]

leasing transactions in the real estate sector is still quite low. In the field of real estate leasing, the largest amount was demonstrated by "Infin Leasing" LLC (13.8 billion

soums), FE "Taiba Leasing" LLC (5.5 billion soums), and the JV "Uzbek Leasing International A.O." JSC (2.5 billion soums).

In conclusion, we can say that when considering the practice of preliminary accounting of leasing transactions, we considered that many documents must be prepared for obtaining a lease. But it takes a lot of time to collect these documents and the situation is more difficult for lessees. Therefore, in our opinion, if some electronic documents were not submitted during the leasing process, it would have created very easy and convenient conditions for business entities of the Republic of Uzbekistan. Based on this, if the number of documents for leasing is reduced, many enterprises support the use of leasing transactions. If separate sub-accounts are opened at the lessee in the management of the lease account, this situation becomes very convenient and quick information for company managers. Therefore, it is appropriate to specify the opening of these sub-accounts in the Accounting Policy for accounting in lessee enterprises.

List of references used

1. Усатова Л.В, Сероситан М.С, Арская Е.В. (2007) Бухгалтерский учёт в коммерческих банках: учебное пособие.3-е изд. -404с.
2. Газман В.Д. (1999) —Рынок лизинговых услуг|| учеб - метод.пособие. - М.:Дело и сервис. 25-с.
3. <https://www.intereconomicss.com/archives>
4. <https://ula.uz>

КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ МУАММОЛАРИ

Хайдарова Дилфуза

*Чилонзор 2-сон касб-хунар мактаби “Махсус фанлар” кафедраси
ўқитувчиси*

Мамлакатимизда фаолият юритувчи хар қандай корхона, шу жумладан кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектлари ўзининг бозордаги ўрни ва улуши ҳамда кузлаган стратик мақсадларига эришиш учун инновацияларга катта аҳамият беради. Инновациялар илмий изланиш ёки кашфиёт асосида ишлаб чиқариш жараёнига татбиқ этилган ва аввалгисидан фарқланувчи объектдир. Инновация тушунчаси иқтисодий, ташкилий, молиявий ва бошқа соҳаларда жорий этилган ҳамда иқтисодий ва ташкилий тежамкорликни таъминлашга

ёрдам берадиган хар кандай янгиликка нисбатан қўлланилади. Корхоналарнинг инновация фаолияти улар фаолиятида илмий тадқиқот натижаларини техник, технологик ва ташкилий иқтисодий янгилигини ишлаб чиқиш ва амалий қўллашдир. 2020-йил 24-июльдаги ЎРҚ-630 сонли 104 қарорга асосан солиқ ва божхона имтиёзлари берилиши муносабати билан бўшаган маблағлар корхоналарда янги ишлаб чиқаришларни ташкил этиш, фаолият курсатаётган ишлаб чиқаришларни кенгайтириш, реконструкция қилиш, модернизациялаш, техник ва технологик жиҳатдан қайта жиҳозлаш, сифатни бошқариш тизимларини жорий этиш, корхоналарнинг муҳандис - техник ходимларини рағбатлантириш, илмий тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишланмаларини молиялаштиришга йуналтирилиши белгиланг. Бу эса барча корхоналарда, шу жумладан кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектларининг илмий, илмий тадқиқот ташкилотлари ўртасидаги кооперацион муносабатларини мустаҳкамлашга олиб келади. Бу эса, кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектларига инновацион лойиҳалар устида жиддий ишлар олиб боришига туртки беради.

Инновацион фаолиятни ишлаб чиқаришга жорий этаётган қарийб хар бир кичик корхона унинг ташкилий муаммоларига дуч келади. Бундай муаммоларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

- илмий-техник янгиликларни яратиш ва шакллантириш;
- лойиҳаларни, унинг ташкилий-меъёрий хужжатларини тайёрлаш;
- янгиликларнинг ташқи ва ички муҳитга мослашувчанлигини таъминлаш;
- янгиликни ишлаб чиқаришга жорий этиш ва оммавий ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш.

Маълумки, инновациялар товар (маҳсулот), технологик, мажмуавий ва ташкилий-бошқарув қуринишларида намоён булади. Кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолиятида асосий эътибор маҳсулот ва технологик инновацияларга қаратилади. Мазкур инновацияларнинг улар иқтисодий мақсадларига эришишларидаги таъсир йуналишлари янги маҳсулот бирлиги ҳамда аввалги маҳсулот сифатини яхшилаш ҳисобига уларнинг ҳақиқий сотиш баҳосини таннарх билан боғлаш орқали фойдасини қупайтириш имконини беради. Кичик корхоналарнинг инновацион фаолият орқали яратган янги маҳсулотларини юқори баҳоларда сотиш қуйидаги шартларга боғлиқ. Булар:

- янги маҳсулотнинг ҳақиқатда мавжуд бўлган қондирилмаётган талабга мос тушиши;

- янги махсулотга бўлган талаб даражасининг фаол маркетинг сиёсати орқали ортиши.

Махсулотнинг хаётийлик даврларининг босқичларига асосан, корхона янги яратилган махсулотини узок вақтгача юқори сотиш баҳоси орқали кўшимча фойда олиш имкониятини ушлаб тура олмайди. Чунки бозорда айнан шундай махсулотни ёки шунга ўхшашини ишлаб чиқарувчи рақобатчилар ўз махсулотларини нисбатан арзонроқ сотиб, бозордаги баҳога таъсир ўтказишлари мумкин, бошқа томондан эса мавжуд махсулот бозори монопол характерга эга бўлган тақдирида ҳам унда янги ишлаб чиқарувчи корхоналар пайдо бўлиши мумкин. Шу сабабли ҳам, кичик корхонанинг янги махсулот турининг сотиш баҳоларини юқори килиб белгилаш орқали оладиган фойдаси узок вақтга чўзилмаслиги мумкин. Демак, ривожланишни мазкур стратегияга кўра танланилиши корхонага кўзлаган мақсадига эришиш имконини бермайди. Бу ҳолат, бир томондан, янги махсулот ва уни ишлаб чиқариш технологияси соҳасида вақтинча монополияга интилиш кичик бизнес ва тадбиркорлик корхоналарининг махсулотни янгилаш билан шуғулланишлари учун етарли омилдир, бошқа томондан эса, бундай монополия вақтинчалик характерга эга. Махсулот инновацияларида кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектлари махсулот сотиш ҳажмини ошириш ҳисобига фойдани кўпайтириш имконига куйидаги ҳолатларда эга булади:

- бозорга таклиф этилаётган махсулотлар аввалгиларига нисбатан харидорлиги ва хусусиятларига кўра бошқа ишлаб чиқарувчиларнинг харидорларини ўзига оғдириб олади ва бунинг ҳисобига сотиш ҳажмини кўпайтиради;

- янги махсулот ишлаб чиқариш ҳисобига мавжуд талабни қондириш орқали махсулот сотиш ҳажмини оширади;

- янги махсулотни бозорга таклиф қилиш орқали бошқа корхоналарда мавжуд булмаган янги бозорни яратади ва сотиш ҳажмини оширади. Корхоналарнинг бошқарув тизимида инновацион менежмент катта аҳамиятга эга. Инновацион менежмент маркетинг, ташкилий ва иқтисодий фаолиятни режалаштириш ва ташкиллаштириш, уларнинг амалга оширилиши устидан назорат ўрнатиш каби ташкилий жараёнларнинг бирлиги ифодасидир. Корхоналар фаолиятига аник махсулот, технологиялар, бозорлар, бошқариш услубларига оид алоҳида янгиликларнинг жорий этилиши корхона менежерларидан маълум шароитлар таъминланишини талаб этади. Булар:

- ходимларда янги иш турларини бажаришларида маълум кўникмалар ҳосил қилиш;

- инновацион фаолиятга бутун корхонани ижтимоий-иқтисодий тизим сифатида йуналтира олиш. Мазкур жараёнда бошқариш объекти сифатида корхона ходимлари чиқади, чунки инновацион фаолият кишиларнинг ижодий қобилиятлари ва кучларининг намоён бўлиши ва уни амалга оширишдир.

ELEKTRON SAVDO VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI IQTISODIYOTIMIZDA TUTGAN O'RNI

Jumayeva Gulnora Amirqulovna
Chilonzor 2-son kasb-hunar maktabi
“Maxsus fanlar” kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli iqtisodiyot haqida bo'lib, unda "Raqamli iqtisodiyot nima?", "Raqamli iqtisodiyot vazifalari va maqsadlari", "Raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishda uchraydigan to'siqlar" kabi muhim savollarga javoblar keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiya, mehnat samaradorligi.

So'nggi paytlarda nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi juda ko'p marotaba qo'llanilmoqda. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tqazgan. Jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim ro'l o'ynaydi.

Raqamli iqtisodiyot tushunchasini yoritishdan avval, kundalik hayotimizda ro'y berishi mumkin bo'lgan bir jarayonni ko'rib chiqsak. Tasavvur qiling, juma kuni ishdan uyga keldingiz, oila a'zolaringiz davrasidasiz, birdan shanba va yakshanba dam olish kunlari mashinada ko'hna Samarqand shahriga sayohat qilish fikri paydo bo'ldi. Lekin Sizning shaxsiy mashinangiz yo'q. Shunda siz kompyuter yoki smartfoningiz orqali mashinalarni ijaraga taqdim etuvchi kompaniyalar saytlari yoki mobil ilovalariga kirib, ism-sharifingiz, haydovchilik guvohnomangiz raqamini kiritib, ikki kunga 6 kishilik oilaviy mashina buyurtma berdingiz. Endi sayohat yo'nalishi tanlash kerak. Qayerlarga boriladi, qaysi muzey, tarixiy obidalarga tashrif buyuriladi. Shunda siz sayyohlik xizmatini ko'rsatadigan agentliklar saytlari yoki mobil ilovalariga kirib, oila a'zolaringiz sonini kiritib, o'zingizga va oila a'zolaringizga qiziq bo'ladigan sayyohlik yo'nalishini tanlaysiz. Shunda shanba kuni ertalab uyingiz oldida 6 kishilik mashina, smartfoningizda muzey va tarixiy obidalarga kirish chiptalari va mehmonxonada qolish uchun oldindan buyurtma qilingan joy bo'ladi. Siz hech qayerga bormasdan, hech kimga qo'ng'iroq qilmasdan ikki kunga oilaviy, mashinada, sayohatni tashkil qildingiz. So'ng Samarqandga yo'l oldingiz. U yerda ikki kun aylangandan so'ng, yakshanba

kuni uyga qaytishda ozgina charchaganingizni sezdingiz, bundan tashqari dushanba kuni ishga borish kerak. Shunda siz smartfoningizni olib darrov o'zingizga va oila a'zolaringizga Afrosiyob tezyurar poyezdlariga chipta olib, vokzalga borasiz va uyga yo'l olasiz, mashina vokzalda qoldiriladi.

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi nisbatan uzoq bo'lmagan vaqtda, 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan.

Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

Asosan raqamli iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy elementi sifatida elektron tijorat, internet banking, elektron tulovlar, internet reklama va shu bilan birga, internet o'yinlari ko'riladi. Axborot texnologiyalarini rivojlanishi va tadbiiq qilinishi evaziga kundalik hayotimizda juda ko'plab qulayliklar paydo bo'lmoqda. Deylik ovqatlanmoqchimiz, lekin uni tayyorlashni xohlamaymiz, muommo emas, internetdan uyga ovqat yetkazib berish xizmati orqali xohlagan taomni onlayn buyurtma qilishimiz mumkin. Yoki do'stimizga pul o'tkazishimiz kerak, bunda albatta bank yoki moliya muassasalariga borishga hojat yo'q, biz pulni mobil bank yoki bank ilovalari orqali o'tkazishimiz mumkin. Shu kabi ko'plab xizmat turlarini onlayn, smartfon yoki kompyuter orqali amalga oshirishimiz mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari: axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiiq etilishi har bir inson hayotida ko'plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o'ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko'plab pul mablag'larini tejashi mumkin. Masalan biron bir kitobning elektron ko'rinishda sotib olish sizga, shu kitobni chop etilgan ko'rinishini sotib olish ancha arzonga tushishi mumkin. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini boshqa afzalliklariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- ishlab chiqarishda mehnat samadorligini oshishi;

- kompaniyalarning raqobatbardoshligini o'sishi;
- ishlab chiqarishdagi harajatlarning kamayishi;
- yangi ish o'rinlari yaratilinishi;
- yangi zamonaviy kasblar paydo bo'lishi;
- kambag'allikni yengish va ijtimoiy tengsizlikni yo'qolishi.

Bular raqamli iqtisodiyotning bor yo'gi bir nechta afzalliklari holos. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bizning kundalik hayotimizga ijobiy ta'sir qiladi, oddiy foydalanuvchiga ko'plab qo'shimcha imkoniyatlar beradi.

АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА ХАРАЖАТЛАР ВА ДАРОМАДЛАР ҲИСОБИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ

Джумаева Гулнора Амиркуловна
Чилонзор 2-сон касб-хунар мактаби
“Махсус фанлар” кафедраси ўқитувчиси

Ҳар қандай маҳсулотни ишлаб чиқариш (бозорга таклиф қилиш учун мўлжалланган) муайян иқтисодий ресурсларнинг нархини, уларнинг оптимал танловини талаб қилади. Харажатлар даражаси бозорда рақобатни шакиллантиришга ва даромадни оширишда энг муҳим омил ҳисобланади. Худди шундай экан акциядорлик жамиятларида ҳам харажатларни тўғри шакиллантириш асносида унинг фойда ёки зарар кўрганлигини кўришимиз мумкин бўлади. Акциядорлик жамияти қандай фаолият тури билан шуғулланишидан қатғий назар унинг, хоҳ у ишлаб чиқариш хоҳ хизмат кўрсатиш билан шуғуллансин барибир унинг харажатлар ва даромадларини ҳисобга олиш тизимини янгилаш ва янгиланишнинг амалдаги қонун ҳужжатларига мослигини назорат қилиш керак бўлади.

Бугунги кунда иқтисодиётимизга бозор элементлари ва халқаро тажрибаларнинг тадбиқ этилиб борилиши, барча хўжалик тармоқларини модернизациялаш негизида, уларни ахборот таъминотининг асоси бўлган бухгалтерия ахбороти билан таъминлаш асносида уларнинг даромадлар ва харажатлари ҳисобини назорат қилиш янада муҳимдир. Хусусан, иқтисодиётимизнинг муҳум бўғини бўлган йирик саноат корхоналари, ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш билан шуғулланувчи акциядорлик жамиятларининг бухгалтерия ахборотининг энг асосий қизми бўлган даромадлар ва харажатлари ҳисобини назорат қилиш ва ушбу ахборотлар асносида уларга чет эл инвестицияларини жалб этиш долзарб вазифалардан ҳисобланади.

Хеч иккиланмай айтишимиз мумкинки акциядорлик жамиятларида бундай муоммоларни пайдо бўлганда уларнинг харажатларини ва дароматларини ҳисобини назорат қилиш керак бўлади ва шуни асосида уларнинг бухгалтерия ҳисобини янада такомиллаштириш ва уларнинг молиявий ҳисоботларини халқаро миқёсда тан олиган стандартлар асосида трансформация қилиш ва бу стандартларни амалий иш жараёнларида жорий қилиш керак бўлади. Бунинг учун эса албатта малкалий кадирларни жалбқилиш ва қайта таёрлаш керак бўлади. Тан олиш керак, мутахассисларнинг билим ва малака жихатдан йирик корхоналарнинг мустақил трансформация қилиш учун техник имкониятлари етарли даражада эмаслиги барчамизга аён. Шуни инобатга олган ҳолда хорижий тажрибани ўрганиш ва зарур бўлса хорижий мутахассисларни чақириб амалётчи мутахассислар билан тажриба алмаштириш керак бўлади.

Хар қандай хўжалик юрутувчи субъект ўз фаолиятининг асоси фойда олишга қаратилган ҳисобланади. Шундай экан акциядорлик жамиятларида ҳам файдага чиқиш ёки чиқмаслиги кўп жихатдан уларда олиб борилаётдан бухгалтерия ҳисобидаги харажатлар ва даромадларнинг тўғри шакиллантирилаётганлигига боғлиқ ҳисобланади.

Даромад ва харажатлар даражаси фойда ва зарарни баҳолашнинг асосидир, улар сотиш ҳажми, маҳсулот нархи, хизматлар, товарлар ва харажатлар билан белгиланадиган сотиш рентабеллиги кўрсаткичлари ҳисобланади. Маҳсулот турларини оптималлаштириш, маркетинг тадқиқотлари, нархларни белгилаш ва харажатларни бошқариш каби фаолиятларни амалга оширишда масъулият марказларини ташкил этиш билан амалга оширилса корхонада ишлаб чиқарилаётган маҳсулотга кетаётган харажатларни оптималлаштиришга эришилиб харажатларнинг фойдалилик даражасини йуксалтиришга эришиш мумкун бўлар эди.

Ишлаб чиқариш билан шуғулланумчи корхоналарда харажатларнинг асосий қисмини хом-ашё ва ишлаб чиқаришдаги меҳнат ҳақки харажатлари ташкил этса, хизмат кўрсатиш корхоналарида эса сотиш харажатлари ва мамурий харажатлар асосий ўринни ташкил этади. Шундай экан корхонада ишлаб чиқарилган маҳсулот таннархига киритиладиган ва киритилмайдиган ишлаб чиқариш, сотиш ва мамурий харажатларини масъулият марказларида таснифлаш, ҳисобга олиш, бошқариш ва режалаштириш керак бўлади. Бу орқали эса биз нафақат харажатларни шу билан бир қаторда даромадларимизни ҳам таснифлашга эришимиз мумкун бўлади. Бу билан эса корхонамизда фаолият олиб бораётган булимларнинг фойдалилик даражасини ва ҳаттоки ходимларнинг иш эффективлиги даражасини ҳам

баҳолашимиз мумкун булади. Бу йиғилган бухгалтерия маълумотлари корхона раҳбарлари ва бўлажак инвестирлар учун энг муҳум ва қимматли маълумот ҳисобланади.

Хулоса ўрнида шуни айта оламизки, *бугунги кунда республикамизда энг долзарб муаммолардан бири йирик корхоналар ва акциядорлик жамиятларида харажатларнинг ва даромадларнинг ҳисобини юритиши ва уни назорат қилиши ҳақида фикрлар келтириб ўтилган. Харажатлар ва даромадларни шакиллантириши бўйича замон талаби бўлиб турган халқаро стандартлар ва реқамли технологияларни тадбиқ этиши бўйича таклиф ва тавсиялар берилган.*

ОБЗОР СЕКТОРА ЛИЗИНГОВЫХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ ПО ИТОГАМ 2022 ГОДА

Эргашева Гулбахор


*Чиланзарский профессиональная школа N 2,
преподаватель кафедры "Специальные науки"*

Лизинг – это плановое управление вашими финансовыми потоками. Вы точно рассчитываете бюджет вашего бизнеса на протяжении срока действия договора лизинга и управляете денежными потоками благодаря схеме расчетов по договору лизинга, что подразумевает равные ежемесячные (ежеквартальные) платежи. Лизинг – это реальная возможность сотрудничества с поставщиками оборудования мирового класса. Вы поставляете оборудование ведущих мировых и отечественных производителей, не отвлекая на это свой оборотный капитал. Оборудование, полученное в лизинг, не только окупает само себя, но и позволяет значительно увеличить ваши доходы.

19 октября 2022 года международной компанией «PricewaterhouseCoopers Central Asia and Caucasus B.V.» (PwC) была проведена презентация в отношении процессов трансформации акционерного общества «Agro Finans Lizing» которые предстоит провести в связи с разработкой проекта «Стратегия развития». В нем была представлена проектная команда специалистов, ответственных за реализацию трансформационных процессов АО «Agro Finans Lizing» и международной компании. Целью разработки и реализации новой «Стратегии развития» АО «Agro Finans Lizing» является реализация долгосрочных стратегических планов, разработка моделей развития и новых лизинговых услуг. Презентация прошла в форме интенсивного обмена идеями, и участники подчеркнули важность процесса трансформации для обеспечения

стабильности лизинговой деятельности АО «Agro Finans Lizing», было подчеркнута актуальность зарубежного опыта и внедрение цифровизации лизинговой деятельности, а в дальнейшем корпоративном управлении, предлагая клиентам новые лизинговые продукты, было отмечено, что система работы с ними должна быть усовершенствована. По завершению презентации с международной компанией PwC было подписано двустороннее соглашение о разработке «Стратегии развития» и реализации процессов трансформации АО «Agro Finans Lizing».

По итогам 2022 года объем новых лизинговых сделок составил 3115,7 млрд. сум, а совокупный портфель лизинговых операций составил 6,18 трлн. сум. При этом на долю лизинговых компаний приходится 88% совокупного портфеля лизинговых сделок, остальные 12% - доля банков. Анализ рынка лизинга в Республике Узбекистан подготовлен на основе официальных данных, предоставленных в распоряжение Лизинговой Ассоциации Узбекистана лизинговыми компаниями и коммерческими банками. В процессе подготовки рейтинга лизингодателей Узбекистана было установлено, что активно занимались лизинговой деятельностью 41 лизингодателей, из них 12 являются банками.



1-рисунок: Объем лизингового портфеля (в млрд. сум)

По итогам 2022 года объем лизингового портфеля составил 6 трлн. 182 млрд. сум, что на 6% больше по сравнению с итогами 2021 года.

Распределение лизинговых сделок по видам основных средств дает представление о том, с какими объектами лизинга и насколько активно работают лизингодатели. На протяжении последних лет крупнейшими сегментами на рынке являются сельхозтехника, технологическое оборудование и лизинг автотранспорта. Необходимо отметить рост сегмента автотранспорта, доля которого увеличивается на протяжении последних лет.

Этой тенденции поспособствовал рост финансовой аренды среди лизинговых компаний по передаче автотранспорта физическим лицам. Несмотря на то, что учёт финансовой аренды за прошлые года не вёлся, можно сказать что немалая доля новых заключенных сделок - финансовая аренда. Если раньше финансовой арендой занимались не так много лизинговых компаний, то за последние годы всё больше лизинговых компаний стали взаимодействовать с физическими лицами и осуществлять сделки финансовой аренды. Таким образом, доля автотранспорта по итогам 2022 года вырвалась на первое место и составила 40,3%, доля сельхозтехники - 26,2%, строительной техники и оборудования – 19,0%, технологического оборудования – 12,1% и недвижимости – 2,4%.



В сфере предоставления лизинга автотранспортных средств объем новых лизинговых сделок составил 1254,5 млрд. сум. Крупнейшим лизингодателем в данном секторе является ИП ООО «Mikro Leasing» (503,8 млрд. сум), Далее идёт группа компаний «Fincom Leasing Group» (288,3 млрд. сум) и СП ООО «Kamaz Asia Leasing» (201,7 млрд. сум).



Сумма новых лизинговых сделок, заключенных в сельскохозяйственном секторе, составила 816,3 млрд. сумов. Среди лизингодателей по предоставлению услуг в данном секторе лидирует АО «O'zagrolizing» (470,5 млрд. сум), далее следуют ООО «Autosanoat Agro Lizing» (209,7 млрд. сум) и ИП ООО «Mikro Leasing» (73,0 млрд. сум).



Объем сделок в строительной сфере составил 591,6 млрд. сумов. Наибольший объем среди лизингодателей в этом секторе предоставил АКБ «Sanoat Qurilish Bank» (327,3 млрд. сум), на втором месте – СП АО «Uzbek Leasing International A.O.» (131,4 млрд. сум), на третьем месте – ИП ООО «Mikro Leasing» (66,7 млрд. сум).



Общий объем лизинговых сделок технологического оборудования составил 377,4 млрд. сум. Среди лизингодателей по объему переданного в лизинг объектов технологического оборудования лидирует СП АО «Uzbek Leasing International A.O.» (195,0 млрд. сум), далее идут АКБ «Qishloq Qurilish Bank» (71,6 млрд. сум) и АКБ «Hamkorbank» (15,8 млрд. сум).



Сумма новых лизинговых сделок в секторе недвижимости по-прежнему находится на низком уровне и составляет 75,9 млрд. сум. В сфере предоставления лизинга недвижимости наибольшую сумму продемонстрировали СП АО «Uzbek Leasing International A.O.» (34,1 млрд. сум), далее идут ООО «Infin Leasing» (25,9 млрд. сум) и ИП ООО «Taiba Leasing» (5,6 млрд. сум).

ТАСВИРИЙ САНЪАТ АСАРЛАРИНИНГ КОМПОЗИЦИОН ТУЗИЛИШИНИ ТАҲЛИЛИ, ИНТЕРЬЕР – ФАЗО ВА АТРОФ-МУҲИТ КОМПОЗИЦИЯСИНИНГ АСОСИ СИФАТИДА

Хасанова Муниса Зиёдулла қизи

Низомий Номидаги ТДПУ Тасвирий санъат кафедраси

катта ўқитувчиси.

hasanovamunisa99@gmail.com

Аннотация. Композиция варианты устида иш олиб бораётган талаба ишининг муваффақиятли чиқиши кўп жиҳатдан чизиш маҳоратини такомиллашганига боғлиқ. Кўп ҳолларда текислик юзаси билан буюмлар ўртасида номутаносиблик кўзга ташланиб қолади. Демак, талаба тугал композиция варианты яратиш учун ҳар бир предмет ва персонажларни алоҳида чизиб кўриши, хомаки расм ва зарисовкалар, этюдлар чизган бўлиши зарур.

Калит сўзлар: композиция, компетенция, педагог, тасвирий санъат, инновация, технология, такомиллаштириш, инновацион технологиялар асосида такомиллаштиришнинг, методика, интерьер, перспектива.

Аннотация. Успешный результат работы студента, работающего над вариантом композиции, во многом зависит от совершенствования навыков рисования. В большинстве случаев заметно несоответствие между плоской поверхностью и предметами. Итак, чтобы создать законченный вариант композиции, ученику необходимо рисовать каждый предмет и персонаж отдельно, зарисовывать и рисовать зарисовки, этюды.

Ключевые слова: композиция, компетентность, педагог, изобразительное искусство, инновация, технология, совершенствование, совершенствование на основе инновационных технологий, методика, интерьер, перспектива.

Annotation. The successful result of the work of a student working on a variant of the composition largely depends on the improvement of drawing skills. In most cases, there is a noticeable discrepancy between the flat surface and objects. So, in order to create a complete version of the composition, the student needs to draw each object and character separately, sketch and draw sketches, sketches.

Key words: composition, competence, teacher, visual arts, innovation, technology, improvement, improvement based on innovative technologies, methodology, interior, perspective.

Тасвирий санъат асарларининг композицион тузилишини таҳлил қилганимизда шу нарсага амин бўлдики, аксарият рассомлар ўз асарларида

фон сифатида интерьердан фойдаланганлар. Бу эса талабаларга композиция сирларини ўргатишда интерьерни тасвирлаш қонуниятларини билишни қанчалик зарур эканлигидан далолат беради.

Интерьер композициясини куришда чизма геометрия, перспектива, чизмачилик фанларидан олинган билим ва тажрибаларга асосланиш мумкин. Кўп ҳолларда талабалар томонидан чизилган интерьерли расмларида перспектива қоидаларини тўла тушунмаслик ёки композиция тузилишининг бу жиҳатларига иккинчи даражали вазифа деб қараш ҳоллари кўп учрайди. Бошқача қилиб айтганда, юқорида айтиб ўтилганидек, интерьер билан персонажлар, картина ғояси ўртасидаги мутаносиблик бузилиб қолади. Бу эса ўз навбатида асар ғоясининг мазмунига путур еткази.

Мавзу композициясини тузишда албатта кузатиш нуқтаси, уфқ чизиғи, хонадаги бурчаклар, дераза ромлари, мебеллар, буюмлар ва ҳ.к.ларнинг барчаси перспектива қоидалари асосида чизилиши лозим. Бу эса мавзунинг композицион ечимини тўғри, саводли ҳал қилиш имконини беради.

Умумийроқ қилиб айтганда, интерьерни тасвирлашнинг дастлабки босқичи геометрик буюмларни чизишга ўргатиш жараёнида амалга оширилади. Чунки, бу вақтда оддий кубдан тортиб, стол, стулгача, цилиндрик шакллардан тортиб, кўза қисмларидаги эллипс (овал)ларнинг кўринишларигача тасвирланади. Интерьерни чизишда ҳам ушбу қоидаларнинг асосий жиҳатлари тадбиқ этилади.

Таълимнинг бошқа турларига қараганда, композиция устида ишлашни ўрганиш тинимсиз хомаки расмлар, этюдлар чизишни, ҳаёт гўзалликларини англаб олиш, бадий мушоҳада юритиш орқали мавзу асосида эскизлар устида ишлаши ва натижада бадий қобилятини намоён этиш имконияти мавжудлиги билан ҳам ажралиб туради.

Композиция учун танланган мавзу учун тайёргарлик маълум бир вақт давомида тайёргарлик босқичлари ўташни талаб этади. Талабаларга бериладиган дастлабки топшириқлар уларнинг ҳаётига яқин бўлиб, улар бу мавзу бўйича тайёргарлик кўриши, материаллар йиғиши, хомаки расмлар, этюдлар, эскизлар чизиш учун шароитлар яратилиши лозим. Бу каби композицион топшириқлар қуйидаги мавзуларда бўлиши мумкин: “Бизнинг оила”, “Мен севган касб”, “Музейда”, “Талабалар” ва ҳоказо.

Талабалар танлаган мавзулари асосида материаллар йиғиш учун бадий устахоналар, музей ва кўргазма залларига экскурсиялар уюштириши, улар томонидан чизилган мавзуларни муҳокама қилиш, маслаҳатлар бериш композиция вариантларининг ранг-баранг бўлишига, талабалар бадий дидини бойиши учун яхши самаралар беради .

Композиция мавзусини талабалар онгига етказишда тасвирий санъат асарларини таҳлил қилишга ўргатиш, рассомлар асарларини композицион тузилиши билан таништириш, уларда бадиий услуб, дунёқараш, эстетик дид ва қобилиятларини шакллантириб боради. Шуниси қувонарлики, кейинги йилларда чоп этилаётган методик адабиётларда тасвирий санъат асарлари, репродукциялари ва уларнинг таҳлилига, рассомлар ҳақидаги маълумотларга кенг ўрин берилмоқда. Бу эса умумий ишимизда катта самаралар бериши муқаррардир.

Тасвирий санъатнинг барча жанрларида, жумладан тарихий, маиший, портрет ва бошқа шу каби тасвирий санъат асарларида интерьер композицияси кенг қўлланилади.

Дастгоҳли рангтасвирда интерьер – бино ва хоналарнинг ички кўриниши демакдир. Интерьернинг жиҳозланишига яъни, бинонинг ички қиёфасига қараб, картинанинг ғояси, ечими, қайси даврга мансублиги, бир сўз билан айтганда асарнинг ғоявий мазмунини англаб етиш мумкин.

Ўзбек рассомларининг ҳам асарларида интерьер композициясидан жуда ўринли фойдаланиш мумкин. Бу каби асарларда чизикли ва ҳаво (ранг) перспективасига қатъий амал қиладилар. Рассом А.Икромжоновнинг “Чингиз Ахмаров портрети”, “Травматолог Қ.Олимов” портретида қаҳрамонларнинг ички дунёси, характери, касби, ўтириш манераси (ҳолати) – интерьерда қандай ҳолатда жойлашганлигига боғлиқдир. Композицион асарлар ечимини топишда воқеяликни интерьерда тасвирлашни ўрни бекиёсдир. Агар ушбу воқеа интерьер фониде тасвирланмаса ёки айрим ҳолларда ёмон тасвирланса ҳам картина кутилган мазмунни бера олмайди. Интерьер фониде яратилган машҳур рассомларнинг асарларини атроф, нарса-ҳодиса ва жиҳозларсиз бир тасаввур қилиб кўринг, асар қанчалик ечимини топмаётганлигига амин бўласиз.

Машҳур рус рассоми И.Е.Репиннинг “Кутмаган эдилар”, Ф.Решетниковнинг “Яна икки олдинги?”, В.А.Серовнинг “Шафтоли ушлаган қиз”, М.Набиевнинг “Эски мактаб” ва бошқа асарлари шулар жумласидандир.

Талабаларни интерьер композициясига оид вариантлар устида иш олиб боришга йўналтиришда машҳур рассомларнинг асарларини кўриб чиқиш ва таҳлил қилишга тавсия этиш мумкин.

Интерьер композицияси ва ундаги персонажлар, жиҳозларни тасвирлашда ҳам чизикли перспективадан ташқари, ҳаво, ранг перспективаси қоидаларига риоя қилиш энг муҳим жиҳатлардан биридир. Баъзан талабаларимиз томонидан чизилган композиция ишларида ҳам узоқдаги

кўриниш, билан яқинда турган буюмлар, персонажлар бир хил босимда, бир хил тонда ишланганини кўрамыз. Бу эса асар диққат маркази, асосий ғоя ва ечимни англаб етишга тўсқинлик қилади ёки бошқача қилиб айтганда,

узоқ – яқиндаги кўриниш ва буюмларни тасвирлашдаги бир хиллик худди барча нарсалар бир текисликда ифодалангандек тушунча беради.

Тасвирий санъат асарларида интерьерни тасвирлашга жиддий эътибор берилиши ва унинг аҳамияти ҳақида фикр юритганда шуни ҳам айтиш керакки, ҳар қандай давр воқеаси, хона жиҳозларини асар воқеасининг қайси даврга оид эканлиги тўғрисида тасаввур ҳосил қилишига ёрдам беради.

Бўлажак рассом ҳар қандай жанрдаги композиция варианты устида иш олиб борар экан, рассомларга хос ижод машаққатларининг ўзига хос айрим жиҳатларигина татиб кўргандек бўлади. Талабалик йилларида қаламтасвир, рангтасвир, пластик анатомия, санъат тарихи ва назарияси предметлари бўйича олинган юзлаб ўқув соатларида олинган сабоқлар билан чегараланиб қолиш ҳам мумкин эмаслиги аён бўлиб қолади.

Демак, барча махсус фанларда олинган билим, тажриба, маҳорат композиция яратишда ўз натижасида кўрсатади. Композиция қонуниятларини чуқур эгаллаган талаба ўз қизиқиши ва меҳнати асосида ўз ижодий қобилиятларини намоён қила олади.

Етук рассом бўлиб етишиш учун нафақат ўз устида тинмасдан ишлашлари зарур эканликларини, балки ўзларини ушбу касбга бахшида этишларини англаб етадилар.

Бундай талабалардан келажақда ижодкор рассом, жонкуяр педагог ва тасвирий санъатимизга ҳурмат, эҳтиром билан қарайдиган олийжаноб кишилар етишиб чиқишига ишонамыз.

Адабиётлар рўйхати

1. Абдурахмонов Ғ. “Композисия” Низомий номидаги ТДПУ. 2009-й.
2. Молева Н.М. Видающиеся русские художники-педагоги. М., 1991.
3. Шорохов Йе.В. Основы композиции - М., Просвещение, 1976.
4. Беда Г.В. «Основы изобразительной грамоти». Просвещение
5. Б.В. Иагонсон. Школа изобразительного искусства – М. 1998.

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INTELLEKTUAL FAOLIYATGA
TAYYORLASH ALGORITMI BOSQICHLARINING AHAMIYATI**

Pardabayeva Dilshoda Nematulla qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti
Dilshoda_pardabayeva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning intellektual faoliyatga tayyorlash masalalari haqida ma'lumotlar va shuningdek bu borada amalga oshirilishi kerak bolgan ishlarda bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlashning algoritmik bosqichlarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Intellektual faoliyat, algoritmik bosqichlar, innovatsion faoliyat, motivlar, o'qituvchi, o'quvchi.


Mamlakatimizning mustaqilligi sharoitida boshlan'ich sinf o'quvchilarni yangi ijtimoiy hayotga tayyorlash, ta'lim-tarbiya jarayonida tafakkurning erkin rivojiga erishish, bu borada pedagoglarni intellektual faoliyatini rivojlantirish asosida ijodkor va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi tadbiiq etish dolzarb muammo ekanligi barchamizga ma'lum. Davlatimiz rahbari yoshlarimizning intellektual salohiyatini o'stirishga ko'plab e'tibar qaratmoqda, bu borada quyidagi fikrlarini eslab o'tishimiz lozim: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[1]. Bu boradagi ishlarni rivojlantirish uchun Intellektuallashtirish vositalar negizida bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'qituvchilarni intellektual-bilim va innovatsion faoliyatga (psixologik-kognitiv, kognitiv-intellektual, hissiy-motivatsion, moddiy-qiyamatli, ijtimoiy-kommunikativ) undaydigan sabablar, shartlar va motivlarga undash bugungi kunning dolzarb vazifalardan biridir [2].

Hozirgi vaqtda intellektual kapitalning o'lchov birliklarini topish qiyin (garchi uni o'lchashning bir qator usullari taklif qilingan bo'lsa ham), bu xodimlarning bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari, malakalarini va boshqalarni aniq o'lchashi mumkin. Zamonaviy sharoitda eng ko'p ishlatiladigan usullarni aniqlashga imkon beradigan intellektual kapitalni baholash usullarini tahlil qilishda Endi Sveiby (2010) tomonidan taklif qilingan nomoddiy aktivlarni o'lchash usullarining tasnifi to'liq hisoblanadi. Aslida, bu tasnif J. Levi va M. Uilyams tomonidan taqdim etilgan tasnif asosida takomillashtirilgan bo'lib, u to'rt toifaga (guruhlariga) bo'lingan ikkita usulni taklif qiladi (Sveiby, 2010). Algoritmikning strukturaviy

komponentlarini shakllantirish darajalarining diagnostikasi bola shaxsining madaniyati kuzatish va tekshirish asosida amalga oshiriladi. Har algoritmik madaniyatning tarkibiy qismi bir nechtdan foydalanish orqali o'rganiladi diagnostika usullari: standartlashtirilgan testlar ("Perceptual modeling", "Sxematlashtirish", "Sistematlashtirish" va boshqalar), bosqichma-bosqich psixodiagnostika usullari farqlash ("Rybka", "Eng o'xshash", "To'rtinchidan istisno" va boshqalar [3]. Bo'lajak o'qituvchilar vazifalarni bajarishda, algoritmik ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni, amallar algoritmlarining to'liq ko'rsatkichli asosidan foydalaniladi. Amallarning to'liq ko'rsatkichli asosi g'oyasidan kelib chiqqan holda, "amallar algoritmlarining ko'rsatkichli asosi" tushunchasini kiritdik, u topshiriqlarni bajarishda algoritmlarni tuzish va o'zgartirish jarayonida amallarning ko'rsatkichli asosi sifatida tushuniladi.

Belgilangan maqsadlarga qarab, o'qitishning tamoyillari va asosiy qoidalari belgilanadi, ularga muvofiq o'qituvchilarning intellektual faolligi oshiriladi, usullar tanlanadi, uni oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarning hajmi va qiymati aniqlanadi va belgilanadi. O'qituvchilarning intellektual faoliyatini rivojlantirishni tizimli amalga oshirish natijalariga ko'ra, ushbu jarayonning samaradorligini diagnostikasi, uning samaradorligini baholash va talqin qilish intellektual effektlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi (1-rasm).



1-rasm. Oqituvchilarning intellektual faoliyatini rivojlantirishni boshqarish algoritmi

Xulosa shuki, O'qituvchilarning intellektual faoliyatini rivojlantirish mexanizmini yaratish metodologiyasi orqali xodimlarning intellektual faolligini rivojlantirish mexanizmi shakllantirildi, bu mexanizm mavjudlaridan farqli o'laroq, boshqaruv tizimida xodimlarning intellektual faoliyatining mafkuraviy darajasini

yoritishga asoslanadi; intellektual faol xodimning konstitutsiyaviy xususiyatlarini ta'kidlash; Xodimning intellektual o'sishi uchun moslashuvchan muhitni shakllantirish va boshqaruv tizimini intellektuallashtirish jarayonida ustuvor bo'lgan uning intellektual va shaxsiy fazilatlarini va malakalarini guruhlash (dunyoqarash-qadriyat, kognitiv, ijtimoiy-xulq-atvor, ma'naviy-emotsional, texnik va texnologik) imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent-"O'zbekiston"-2016. 14-b.
2. Petruk G. V., Shashlo N. V. Formation of personnel intellectual activity development mechanism in the context of society digitalization //PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 2020. – T. 17. – №. 6. – С. 708.
3. Диагностика умственного развития дошкольников / под ред. Л.А. Венгера и В.В. Холмовской. М.: Педагогика, 1978. 248 с.
4. Achilovich D. H. Texnika oliy ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarning o'рни va roli //ta'lim fidoyilari. – 2022. – т. 10. – с. 65-70.

SABZI TARKIBIDAGI KARATENOIDLARNI TADQIQ QILISH VA UNING SHARBATLARIGA ISHLOV BERISHNING BUGUNGI KUNDAGI TEXNOLOGIYASI

Jumanazarov Tohir

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali o'quvchisi
jumanazarovtohir2003@gmail.com

Bobur Xolmurodov Bahrom o'g'li

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali o'qituvchisi
boburxolmuradov1996@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada sabzining kimyoviy tarkibi tahlil qilindi va uning tarkibidan rang beruvchi karatinoidlarning xususiyatlari va sabzi sharbatlariga ishlov berishning bugungi kundagi muammolari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Sabzi, karotinoid, sabzi sharbati, beta-karotinoid, konsentrlangan sabzi sharbati, sabzi ildizi.

Sabzi (*Daucus carota* L.) Umbelliferae Oilasiga mansub madaniyat Apiaceae(ilgariUmbelliferae), ko'pincha rangga qo'shimcha ravishda antioksidant xususiyatlarni ta'minlaydigan karotenoidlar va flavonoidlar ko'rinishidagi har xil turdagi pigmentlarga ega monoxromatik ildizlarga ega. Sabzi karotinoidlar va xun tolasi kabi biologik faol birikmalarga boy bo'lgan muhim ildiz ekinlaridan biri

bo'lib, salomatlikni mustahkamlovchi xususiyatlarga ega bo'lgan ko'plab boshqa funktsional komponentlarni ham o'z ichiga oladi. Sabzi va sabzi mahsulotlarini iste'mol qilish tabiiy antioksidantlarning muhim manbai sifatida tan olinishi tufayli doimiy ravishda oshib bormoqda. Inson ovqatlanishida an'anaviy ravishda Ishlatiladigan sabzi ildizlariga qo'shimcha ravishda, sharbat, konsentrat, quruq kukun, konserva va boshqalar kabi ozuqaviy moddalarga boy qayta ishlangan ovqatlar ishlab chiqaradilar [3,4].

Sabzi (*Daucus carota* L.) ko'plab mamlakatlardagi odamlar uchun karotenoidlarning klassik manbai hisoblanadi. Turli xil navlarda bu birikmalarning miqdori 100 g yangi vaznda 8,4 dan 19,2 mg gacha o'zgarib turadi. α - va β -karotin sabzi karotinoidlarining asosiy izomerlaridir. Bundan tashqari, sabzi oz miqdorda luteinni o'z ichiga oladi [5].

Sabzi katta miqdorda qutbsiz Karotinlar (α - va β -fraksiyalar) va qutbli ksantofillar (lutein) ni o'z ichiga oladi [1,2].

Karotinoidlardan tashqari flavonoidlar sabzi tarkibidagi qimmatli komponentlardir [6].

Biotexnologiyadagi yutuqlar muhim dunyoda boshqa manbalardan karotin ishlab chiqarish muammosini hal qilish imkonini beradi. Bunday gerellar bir hujayrali suv o'tlari, filamentli zamburug'lar, bakteriyalar bo'lishi mumkin [7,8].

Mobil fazani tanlash uchun biz quyidagi mezonlardan foydalandik: u past viskoziteli, karotenoidlarga nisbatan inertligi va past toksikligi bilan ajralib turishi kerak. Shuningdek, mobil faza C18 ustuni bilan birgalikda sabzi polar bo'lmagan karotinlarni (α -va β -karotin) va qutbli ksantofillarni (lutein) yaxshi ajratishni ta'minlashi kerak. Ushbu talablar karotenoidlarni tahlil qilishda tez-tez Ishlatiladigan asetonitril va metanolga asoslangan mobil fazalar tomonidan qondiriladi [9,10].

Sabzi ildiz ekinlarining asosiy kimyoviy (bog'langan) birikmalarining ta'sirini o'rganish uchun (*Daucus sativus*Roehl) sabzi asosiy komponentlarining namunaviy aralashmasi quyidagi nisbatlarda tayyorlandi: β -karotin – 0,01 g; glyukoza – 2,5 g; saxaroza – 3,5 g; pektin – 0,6 g; olma kislotasi – 0,2 g; aspartik kislota – 0,14 g; glutamik kislota – 0,24 g [11].

Yuqorida aytilganlar bilan bog'liq holda, ishning maqsadi quyidagilardan iborat: beta-Karotinni termal oksidlangan o'simlik materiallaridan ekologik toza usulda olish va preparatning mumkin bo'lgan toksikologik, allergik va mahalliy tirnash xususiyati beruvchi xususiyatlarini aniqlash orqali xavfsizligini tekshirish.

Beta-karotin (β -karotin, oziq-ovqat qo'shimchasi E160a, sinonimlari – provitamin A) sariq-to'q sariq rangli pigmentlarning katta guruhi bo'lgan karotenoidlarga mansub tabiiy kelib chiqishi biologik faol moddadir [12].

Ba'zi o'simliklar (sabzi, qovoq, o't, yovvoyi atirgul, dengiz itshumurt va boshqalar) ham karotenoidlarning an'anaviy manbalari bo'lib, shu bilan birga filamentli zamburug'lar va xamirturushlar xuddi shu maqsadlarda ishlatiladi. Bundan tashqari, kimyoviy sintez beta-karotin olish uchun keng qo'llaniladi [13].

Hozirgi vaqtda sabzavot sharbatidan olinadigan tabiiy bo'yoqlarga iste'molchilar talabi ortib bormoqda. Sabzi sharbati ayniqsa karotenoidlarga boy, xususan: b- karotin, a-karotin, g-karotin vaz-karotin, sabzi ildizining odatiy apelsin rangi uchun javob beradi [14, 15].

Sabzi sharbati eng mashhur sabzavot sharbatlaridan biri bo'lib, karotenoidli ichimliklarda provitamin A ning tabiiy manbai sifatida ishlatiladi. Biroq, qayta ishlanmagan xom sabzi sharbati qisqa saqlash muddati tufayli cheklangan bozor imkoniyatlariga ega va odatda bir-ikki kun ichida iste'mol qilinishi kerak. Sabzi sharbatini tijorat maqsadida ishlab chiqarishda termal sterilizatsiya va uning pH darajasini pasaytirishni o'z ichiga oladi, chunki uning tabiiy pH qiymati taxminan 6,0 ni tashkil qiladi, bu esa mahsulotni bakterial ifloslanishning yuqori xavfiga olib keladi. Kislota eritmasi bilan oqartirish sabzi sharbatida oqsillarning koagulyatsiyasini oldini olish uchun ishlatiladi va rangni saqlab qolish uchun sharbatlarni qayta ishlashda muhim qadamdir. Shu bilan birga, kislotali oqartirish va 105-121 °C da kuchli issiqlik bilan ishlov berish muqarrar ravishda sharbatdagi issiqlikka sezgir ozuqa moddalarini, tuzilishini, rangi va ta'mini yo'q qiladi. Iste'molchi talabi ko'proq tabiiy ta'm va ranglarga ega bo'lgan, oziq-ovqat ozuqalari yuqori bo'lgan va tarqatish va iste'mol qilish uchun etarlicha uzoq saqlash muddatiga ega bo'lgan mahsulotlarni tanlashadi. Bosim bilan ishlov berish oziq-ovqat mahsulotlarini pasterizatsiya qilish uchun ishlatiladigan yangi issiqlik bo'lmagan texnologiya bo'lib, mikrobiologik jihatdan xavfsiz va barqaror, sifati yaxshilangan, shu jumladan ta'mi va rangi yaxshilangan mahsulotlar ishlab chiqarishi ilmiy jihatdan isbotlangan [16, 17, 18, 19].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Purkiewicz A, Ciborska J, Tańska M, Narwojsz A, Starowicz M, Przybylowicz KE, et al. The impact of the method Extraction and different carrot variety on the carotenoid profile, total phenolic content and antioxidant properties of juices. *Plants*. 2020;9(12). <https://doi.org/10.3390/plants9121759>.
2. Miękus N, Iqbal A, Marszałek K, Puchalski C, Swiergiel A. Green chemistry extractions of carotenoids from *Daucus Carota* L. – supercritical carbon dioxide and enzyme-assisted methods. *Molecules*. 2019;24(23). <https://doi.org/10.3390/Molecules24234339>.

3. Fikselová M. Et al. Extraction of carrot (*Daucus carota* L.) carotenes under different conditions // *Czech Journal of Food Sciences*. 2008. V. 26. № 4. P. 268–274.
4. Kaur A., Sogi D. S. Effect of osmotic dehydration on physico-chemical properties and pigment content of carrot (*Daucus carota* L.) during preserve manufacture // *Journal of food processing and preservation*. 2017. V. 41. № 5. P. e13153.
5. Rodriguez-Amaya D. B. A guide to carotenoid analysis in foods / D. B. Rodriguez-Amaya. Ph. D. — Washington, DC 20005–5802, USA, 2001. 64 p.
6. Prieciņaliga L, Kārklīņa D. Influence of steam treatment and drying on carrots composition and concentration of phenolics, Organic acids and carotenoids. *Proceedings of the Latvian Academy of Sciences. Section B. Natural, Exact, and Applied Sciences*. 2018;72(2):103–112. <https://doi.org/10.2478/prolas-2018-0017>.
7. Peterson W. J. The carotenoid pigments / W. J. Peterson, J. S. Hughes, L. F. Payne, W. C. Austin // *Kansasstate printing plant. USA*. – 1939. – P. 5 – 7.
8. Воробьёва, Л. И. Микробиологический синтез витаминов [Текст]: справ. Изд. / Л. И. Воробьёва. – М.: Изд-во МГУ, 1982. – 168 с.
9. Muntean E. Quantification of carotenoids from pumpkin Juice by HPLC–DAD Scientific Researches / E. Muntean. *Agroalimentary Processes and Technologies*. 2005. Vol. XI. No 1. P. 123–128.
10. Márová L. Physiologically Significant Carotenoids and their Common Food Sources in Czech Population / L Márová, B. Slovák, H. Bílková, J. Ocenásková, and P. Cvanarová. *Chem. Papers*. 1999. Vol. 53. No 3. P. 174–183.
11. Использование термообработки кароти-ноидсодержащего растительного сырья для повышения гидрофильных свойств природных пигментов / Л. И. Перикова [и др.] // *Хранение и переработка сельхозсырья*. 2004. № 8. С. 15–17.
12. Дейнека В. И., Шапошников А. А., Дейнека Л. А., Гусева Т. С., Мешнцева Е. А. Каротиноиды: строение, биологические функции и перспективы применения // *Научные ведомости БелГУ. Серия: Медицина. Фармация*. 2008 г. № 6.
13. Антипов В. А. Использование препаратов бета-каротина в Животноводстве и ветеринарии. Краснодар.: Кубанский агроуниверситет, 2001. 118 с.

14. Дерканосова Н. М. , Гинс В. К. , Лупанова О. А. , Андропова И. И. Разработка способов получения и применения Натурального пищевого красителя // Техника и технология пищевых производств. 2015. № 1(36). С. 18–23.
15. Shukla K. K. , Kaur S. Development of value added product from underutilized tuber and root. Lovely Professional University, 2018.
16. Болотов В. М. , Олейникова А. Я. , Плотникова И. В. , Саввин П. Н. Применение красителя из натурального Растительного сырья в производстве карамели «Жевательной» // Известия ОГАУ. 2009. № 23–1. С. 187–189.
17. Collins P. , Timberlake C. Recent developments of natural food colours// Overseal Foods, United Kingdom. 1993. № 6. P. 32–35.
18. Пат. № 2221829, RU, C09B 61/00. Способ получения спирто-водорастворимого каротиноидного красителя из растительного Сырья / Перикова Л. И. , Болотов В. М. , Рудаков О. Б. № 2002119910/13; Заявл. 22. 07. 2002; Оpubл. 20. 01. 2004, Бюл. № 2.
19. Пат. № 194622, RU, B01D 11/02. Лабораторная установка для экстракции растительного сырья / Невзоров В. Н. , Безъязыков Д. С. , Мацкевич И. В. , Кох Ж. А. № 2019121828; Заявл. 09. 07. 2019; Оpubл. 17. 12. 2019, Бюл. № 35.

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ХИЗМАТИНИНГ ХОТИН-ҚИЗЛАР БИЛАН ИШЛАШ БЎЙИЧА ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

*Жуманиёзова Донохон Ойбек қизи
